


ISMATOV ULFAT SHUHRATOVICH

RANGTASVIR



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Ismatov Ulfat Shuhratovich

RANGTASVIR

O'quv qo'llanma

“60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi”
ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun



CHIRCHIQ–2023

UDK: 741/744

BBK: 85.14

I - 78

Muallif:

Ismatov Ulfat Shuhratovich

Taqrizchilar:

**Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Tasviriy san‘at va dizayn” kafedrası
professori p.f.n B.B. Baymetov**

**O‘zbekiston davlat
san‘at va madaniyat instituti
“San’atshunoslik va madaniyat”
kafedrası dotsenti
s.f.n. I.R. Abduraxmonov**

ISBN 978-9943-8977-6-2

Annotatsiya

Mazkur “Rangtasvir” nomli o‘quv qo‘llanma “60111200 — Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan. O‘quv qo‘llanmada rangtasvir fanidan amaliy mashg‘ulot mavzulari yuzasidan nazariy ma’lumotlar berilgan, hamda amaliy ishlar bajarilishi metodik izchillikda namuna sifatida berib o‘tilgan. Talabalar bilimini mustahkamlash uchun grafik materiallar va grafik materiallarda tasvirlash haqida ma’lumotlar, hamda atamalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, mustaqil ishlashlari uchun namunalar mavjud.

Qo‘llanma xorijiy hamda mahalliy adabiyotlar uyg‘unligida amaldagi davlat ta‘lim standarti va fan dasturiga mos holda ishlab chiqilgan.

O‘quv qo‘llanmadan “60111200 — Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” ta‘lim yo‘nalishi talabalari hamda ilmiy izlanuvchilar, san’at maktablari, umumiyl o‘rta ta‘lim məktəb o‘qituvchiları, to‘garak rahbarlari va havaskor rassomlar ham foydalanishlari mumkin.

Аннотация

Учебно-методическое пособие "живопись" предназначено для студентов специальности "60111200 - Изобразительное искусство и инженерная графика". В учебном пособии даны теоретические сведения по темам практических занятий в области живописи, а выполнение практических работ приведено в качестве примера в методической последовательности. Для закрепления знаний учащихся приведены сведения о графических материалах и представлении в графических материалах, а также термины, список используемой литературы, примеры для самостоятельной работы.

Учебное пособие разработано в соответствии с действующим государственным образовательным стандартом и научной программой, объединив зарубежную и отечественную литературу.

Из учебного пособия “60111200-Изобразительное искусство и инженерная графика” студенты и научные сотрудники, художественные школы, учителя общеобразовательных школ, также могут быть использованы клубными руководителями внешкольных учреждений и самодеятельными художниками.

Annotation

This study guide entitled "Painting" is intended for students of "60111200 - Fine arts and engineering graphics". The training manual provides theoretical information on the topics of practical training in the field of painting, and the implementation of practical work is given as an example in methodical consistency. To strengthen students' knowledge, there are information about graphic materials and representation in graphic materials, as well as terms, a list of used literature, and examples for independent work.

The manual was developed in accordance with the current state educational standard and science program, combining foreign and local literature.

From the study guide "60111200 - Fine arts and engineering graphics" students and researchers, art schools, general secondary school teachers, extracurricular institutions can also be used by garak leaders and amateur artists.

KIRISH

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko‘tarish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg‘or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliv pedagogik ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Pedagogik ta’lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo‘suvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, sohaga oid ilg‘or ta’lim texnologiyalarini joriy qilish, pedagogik ta’lim muassasalarining oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Shu bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldaggi Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-4623 sonli qarorida pedagogika ta’lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab o‘tilgan.

Yoshlarni badiiy jihatdan barkamol, vatanga va milliy san’atga sadoqat ruhida tarbiyalab voyaga yetkazishda tasviriy san’at xususan, qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘z navbatida oliv o‘quv yurtlari Tasviriy san’at ta’lim yo‘nalishida olib borilayotgan maxsus fanlarning chuqur va asosli bo‘lishini taqozo etib, pedagog va olimlar zimmasiga yuksak vazifalarni yuklaydi.

Tasviriy san’at fani umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan barcha maxsus fanlarning asosi hisoblanadi va ular orasidagi bevosita bog‘liqlikni ta’minlaydi. Tasviriy san’at fanidan yetarli bilim va malakalarni egallamay turib, talaba haykaltaroshlik, xalq amaliy san’ati va boshqa fanlarni yuqori darajada o‘zlashtira olmaydi.

Tasviriy san’at – bu go‘zalliklar dunyosi. Uni tushunish va qabul qilish uchun eng avvalo tasviriy san’atning ifodaviy tilini o‘zlashtirish, uning turlari va janrlari haqida tushunchaga ega bo‘lish va rangtasvir texnikasi va texnologiyasi haqidagi bilimlarni egallashi lozim.

Shuning uchun ham tasviriy san’at o‘qituvchisi o‘z ish faoliyatida o‘quvchilarga

faqat san'atning nazariy asoslari va uning ifodaviy tilinigina o'rgatib qolmasdan, balki tasviriy san'at materiallari va asbob-uskunalarini haqidagi ma'lumotlarni ham yetkazishlari juda muhim.

Tasviriy san'atni o'rganish, uning texnik asoslarini o'rganishdan boshlanadi.

Xuddi shu bilimlar tasviriy san'atning turli ko'rinishlari bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishga sharoit yaratadi.

Pedagogik Oliy ta'lim muassasalarining tasviriy san'at ta'lim yo'nalishlarida va san'at maktablarida materialshunoslik va tasviriy san'at vositalariga kam e'tibor qilinadi. Bu esa ta'lim jarayonida juda katta uzilishlarga olib keladi.

Ushbu o'quv qo'llanmada rangtasvirning rivojlanish jarayoni va ranglarning paydo bo'lishi, tayyorlanishi haqida hamda turli grafik materiallar bilan tanishtirishni va rangtasvir texnikasi va texnologiyasining ijodiy imkoniyatlarini ochib berishni maqsad qilib qo'yilgan.

Grafik materiallarning xususiyatlari bilan tanishish ijodiy jarayonda muhim rol o'ynaydi.

Talabalar tasviriy san'atning texnik asoslarini o'rganib bo'lishganidan so'nggina pedagog-rassom ularni qalamtasvir va rangtasvirga o'rgatadi.

Kimki rangtasvirni o'rganmoqchi bo'lsa, u doimiy amaliy mashqlar bajarishi va rangda har xil tajribalar o'tkazib turishi zarur.

Rangtasvir mashg'ulotlari orqali yosh rassom-pedagoglar atrof-muhit, borliqni kuzatish, idrok etish, tahlil qilib to'g'ri tasvirlashni o'rganishadi. Bu esa bo'lajak pedagog-rassom kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan grafik materiallarda tasvirlash texnikasini o'zlashtirishida katta metodik yordam beradi. Bunday bilimlarni nazariy va amaliy jihatdan puxta egallash orqali talabada ijodkorlik xislatlari shakllanib haqiqiy pedagogik mahoratga erishishi mumkin. Yana shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, faqat kitobni o'qish bilan mo'yqalamda ishlash mahorati oshib qolmaydi. Ijodiy mahorat tinimsiz, uzoq vaqt amaliy mashqlar bajarish jarayonida o'sib boradi. Amaliy mashqlar maqsadga yetishning eng to'g'ri yo'li bo'lsa, kitob esa undagi harakatlarni boshqaruvchi yo'l ko'rsatuvchi mayoq hisoblanadi¹.

1 X.E.Sultanov. RANGTASVIR (Akvarelda natyurmort ishlash). O'quv qo'llanma. Toshkent-2019., 5 b.

Rangtasvir materiallarini yaratish texnologiyasi amaliy kimyo asosida rivojlandi va ilmiy xarakterga ega. Bu texnologiyani rangtasvircilar amaliy ish jarayonida yaratishgan va yillar davomida o‘rganishgan.

Qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha yangi tasviriy vositalarning rivojlanishi rangtasvir qonun-qoidalarini san’at, shuningdek hunarmandchilik sifatida ko‘rsatib kelgan.

Tasviriy san’atning rivojlanish tarixi


Tasviriy sanatning paydo bo‘lishi, rivojlanish jarayonlari va insoniyatning ilk badiiy ijod namunalari ibridoiy to‘da davriga borib taqaladi. G‘orlardagi devoriy rasmlar, toshdan va suyakdan yasalgan haykalchalar, tosh plitalardagi va kiyik shoxlari parchalaridagi naqshinkor estetik bezaklar shuni ko‘rsatadiki; san’at, hali inson badiiy ijodiyotini ongli ravishda tasavvur qilishidan birmuncha ilgari yuzaga kelgan.

San’atning yuzaga kelishi insoniyat taraqqiyotida buyuk bosqich bo‘lgan.

Jamiyat hayotining ruhiy va iqtisodiy asoslari endi shakllanayotgan bu davrni tarixchi va arxeolog olimlar o‘zlarining olib borgan tadqiqotlari natijasida tasviriy san’atning dastlabki yodgorliklari yuqori poleolit davriga oid ekanligini tasdiqlaydilar. Ularning yozishicha ijod namunalarinig shakillanishi ibridoiy jamoa tuzumining nisbatan yetilishi, urug‘chilikning shakillanishi, matriarxatning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq.

Ibtidoiy san’atning ilk namunalarida ovchilik bilan shug‘ullangan inson o‘z muhitini — ov manzaralarini aks ettirib g‘orlarning devorlariga, qoyatoshlar va boshqalarga ishlagan tasvirlarida (bo‘yab, bo‘rtma hosil qilib ishlangan), loydan tayyorlangan, toshni yo‘nib ishlagan haykallarida ovlanadigan hayvonlar (zubr, ot, kiyik, mamont, yovvoyi hayvonlar va b.), odamzotlarni (ko‘proq ayollar)ni ifodalagan (Fransiyaning La-Ferrasi, Lasko g‘orlari, Ispaniyaning Altamira g‘ori, Sahroi Kabirning Tassilin-Ajar degan joyidagi qadimgi odamlar yashagan qarorgoxlar va b.). Ibtidoiy san’atkorlar tasviriy san’atning hamma turlari (rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik) ga mansub asarlarida hayotni sinchkovlik bilan kuzatganlari ko‘zga tashlanadi. Odam va odamsifat maxluqlar, qo‘l izlari, chizma belgilar va boshqa tasvirlar kam uchraydi. G‘ordagi tasvirlar qora, qizil, sariq va jigarrang mineral

bo‘yoqlar bilan ishlangan, barelyef ko‘rinishidagi tasvirlar kam, sodda realizmga xos haykaltaroshlik (odam va hayvon shakllari), badiiy (suyak va yog‘och) o‘ymakorlik namunalari paydo bo‘lgan. Tabiat ibtidoiy afsonalarga asoslangan insoniy sifatlarga ega bo‘lgan obrazlarda aks ettirilgan. Me’morlik rivojlanib, uylar yerto‘la tarzida dumaloq, to‘rtburchak shaklida qurilgan, bunday xonalarga uzun yo‘laklar orqali kirilgan. Ba’zaxom-ashyolarsifatidayirikhayvonlarning suyaklaridan foydalanilgan.



1-rasm

go‘zallikni ilg‘ash qobiliyatlarini shakllantirgan. Tabiat hodisalarining eng sodda shakllariga ham hayratlanish hissi bilan qaragan odam uni o‘rgandi, o‘zlashtirdi. Natijada “obraz” tushunchasi vujudga kelib, ular so‘zda tasvirda, ohanglarda o‘z aksini topdi. Atrof-muhitdan o‘ylamasdan nus’ha ko‘chirish emas, balki tabiatni, hayotiy mehnat tajribalarini ijodiy ifodalash malakasi paydo bo‘la boshladi.


Bunday san’at namunalari Ukraina, Belorussiya, Sibirdan ko‘plab topilgan.

Ovchilikdan dehqonchilik va chorvachilikka o‘tilishi san’atda yangi an’analarni yuzaga keltirgan. Mehnatga munosabat va faoliyatining kengayishi natijasida odamlarning fikrlash doirasi ham kengaydi.

Qadimiy qabilalarning bir necha ming yillar davomidagi taraqqiyoti, ularning ko‘z qarashlari, qo‘l harakatlarining mayinlashuvi, asosiy va harakterli holatni ko‘rish, his qilish, tabiatga xos shakllar uyg‘unligi va

Qattiq jismlardan tosh, yog‘ochdan ishlangan mehnat quroli bilan ishlash jarayonida odamlar narsalarning xususiyatlari va turlari bilan tanishish, bo‘rtma va yuzaning o‘ziga hosliklarini aniq ilg‘ash hamda uni qabul qilishga o‘rgandilar. Bunda ovchilik hayvonot olamining xulq-atvorini kuzatish imkoniyatini berdi.

Odamlar mehnat jarayonida shakl tuyg‘usini his etib, ritm, simmetriya tushunchalarini o’zlashtira boshladilar. Ular mehnat jarayonida tabiat kuchlarini o’zlariga bo’ysundirdilar. Ishlatilayotgan buyumlarning shakli bajarayotgan mehnatlarini osonlashtirishi yoki qiyinlashtirishi mumkinligini tushundilar. Qulay mehnat quollarining unumi ularda o’z quollariga nisbatan mehr tuyg‘ularini uyg‘ota bordi. Ular o’z quollariga bezak berish orqali o’zlarining mehrlarini izhor etishga harakat qila boshladilar. Odamlarda qulaylik va foydalilik tushunchalarining yuzaga kelishi voqelikdagi, hayotdagi go’zallik va xunukliklarni his etish imkoniyatini rivojlantira boshladi. Inson madaniyati



2-rasm

taraqqiyot olamiga qadam qo’ydi. San’atning yuzaga kelishi insonning obyektiv voqelik to’g‘risidagi bilimlarining chuqurlashishiga, o’z avlodi tajribalaridan bahramand bo’lishga olib keldi. Bu uni tabiat kuchlariga qarshi kurashishga

da'vat etdi, uning aqliy kamoloti, estetik qarashlari rivojini jadallashtirdi.²

Ibtidoiy odam samarali ov natijasini bir-biriga bayon qilish natijasida, hayvonot dunyosining o'ziga xos ajoyib harakatlarini ilg'ay bordi va ularni tasvirlarda ham aks ettirish harakatini kashf qildi.

Tosh asri davri sanat asarlari tabiiy ehtiyoj tufayli vujudga kelgan bo'lib, qadimiy odam kundalik mehnat faoliyatining in'kosi sifatida o'z-o'zidan tug'ilgan dunyoqarashi natijasidir. Bu davrda inson hayoti mehnat qilish jarayoni, afsonalar majmui, san'at, sehrvaibridoiy ilmiytasavvurlarbo'linmagan, yaxlitholdaedi. Ibtidoiy odam o'zini tabiatdan ajratmaydi, balki unga sehrli tasir etish mumkin deb hisoblaydi va buning asosida tabiatni sehr kuchi bilan o'zgartirish mumkin degan fikr yuritadi.

Ilk insoniyat fikr va g'oyalarida ov ko'rinishlarini sahnalaشتiruvchi ovchilar o'yini, o'zлari yashagan makonlaridagi g'orlarga, tog' qoyalariga, turli jonzotlarning terilariga, toshlarga chizilgan naqshlar, jonivorlarni tasvirlovchi chiziqlar afsunkor urf-odatlar bilan bog'liq bo'lib, ular ibtidoiy odam tasavvuri bo'yicha ovda muvaffaqiyat qozonishni taminlashi kerak edi. Jonivorlarni tasvirlay bilishi asosida odamda xuddi ular ustidan g'alabani qo'lga kiritganday hissiyot mujassam edi. Bu fantastik fikrlashida insonning dunyoni egallashga bo'lgan intilishi o'z aksini topgan. Ushbu ilk ijodiy yaratuvchanlik jarayonida estetik tushunchaning dastlabki kurtaklari mavjud bo'lib, shu asosda tasviriylar sanat rivojlandi.

Rangtasvir - rang san'ati

Hayvonat dunyosining o'ziga xos ajoyib harakatlarini va ov manzaralarini tasvirlashga bo'lgan qiziqishlari natijasida sekin astalik bilan turli ranglar yaratila boshlandi. Ilkboribridoiy jamoadavridayashagan inson rangnikashfqilgan. Hayvonlar qoni, moy, ko'mir, tuproq ham o'sha davrlarda ishlangan bo'yoqlarning tarkibiy qismi bo'lgan. Bo'yoqlarni tayyorlash malakalari hozirgi kungacha ham o'zgarishsiz yetib kelgan, lekin asosiy tarkibiy qismlari va ishlab-chiqarish texnikasi o'zgarib ketgan.

Bo'yoqlar pigment va bog'lovchi vositalardan tarkib topadi. Pigment (lot. Pigmentum)- bu bo'yovchi modda hisoblanadi.

Italian rassomi, me'mori va yozuvchisi Jorjo Vazari 1550-1568 yillarda birinchi "San'at tarixi" kitobini yozadi va bu kitobida moybo'yoqni kashf etgan

² X.X.Muratov., Qalamtasvir, O'quv qo'llanma, TOSHKENT IJOD-PRINT 2020., 6-bet

aka-uka Yan van-Eyklar haqida ma'lumot beradi. Moybo'yoq rangtasvirda XV asrdan buyon qo'llanila boshlandi. Shungacha kartinalar, ayniqsa yog'ochga ishlangan rasmlar tuxumli tempera bilan ishlangan. Bu kartinalarni yaratishda rantasvir uchun murakkab materiallar va bog'lovchi elementlardan foydalanganlar. Lekin, ular qisqa vaqtida ishdan chiqqan va bo'yoqni yana tayyorlash zarur bo'lgan. Bo'yoqlarda bog'lovchi vosita sifatida moylardan foydalanila boshlagandan keyin, bo'yoq tayyorlash jarayoni bir muncha osonlashadi. Bundan tashqari bo'yoqlarning yorqinligi va ranglarning aniqligi oshdi. Turli bo'yoq qatlamlarini bir-biriga qo'yilishi nozik rang nyuanslarini keltirib chiqardi.

Rangtasvir-rang san'ati. Rangtasvir-xaqiqiy hayotni aks ettirib, tamoshabinning fikri va hissiyotlariga ta'sir o'tkazuvchi tasviriy san'at turlaridan biridir.

Biror bir satx yuzasiga, bo'yoqlar (moybo'yoq, tempera, akvarel, guash va boshqalar) bilan bajarilgan san'at asariga rangtasvir deyiladi. Rangtasvirdagi obrazlar juda yorqin va tomashabop. Rassomlar asarlarini rangtasvir va plastik vositalar bilan yaratadilar. Ular qalamtasvir va kompozitsiya imkoniyatlaridan foydalanganlar bilan, rangtasvirdagi eng asosiyta'sirchanlik niberuvchi vositalardan biri buranghi soylanadi.

Rangtasvirdagi tasvirlar tasviriy satxda uzlucksiz bo'yoq qatlamini hosil qiluvchi bo'yoqlar yordamida yaratiladi. Xattoki akvarel rangtasvirida qog'ozda bo'yoq tegmagan joylar qolsa ham, tasvirning uzlucksizligiga ta'sir qilmaydi, chunki bo'yoqlar bir-biriga singishib va aralashib ketishadi.

Rangning tasviriy va ta'sirchanlik imkoniyatlaridan rangtasvirda rassomga zarur bo'lgan erkinlik va to'liq kuch bilan foydalaniladi. Rang orqali kompozitsiyadagi asosiy fikrni ajratib ko'rsatish, muhim detallarini bo'rttirish, masofani chuqurligini berish yoki tasvirning yassilagini berish mumkin.

Rangtasvirning eng muhim ajralib turuvchi xususiyatlari shundan iboratki, unda shakl va masofaning tasviri, obrazlar va harakatlar faqat rang orqali ko'rildi.

Rangtasvir inson hissiyotlari va xarakterining murakkab dunyosini aks ettirishi bilan birga tabiatning nozik o'zgarishlari, fantastik obrazlar va falsafiy fikrlarni berish xususiyatiga ega. Bularning hammasi tasviriy san'atda grafik materiallarda ishslash orqali yoritilib beriladi.



GRAFIK MATERIALLAR

HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

Akvarel

Akvarelda rangtasvir ishslash uzoq tarix va boy an'analarga ega. 3500 yillar oldin inson kitob yozish va unga rasmlar ishslashni boshladi, bu bilan u akvarel rangtasviriga asos solganligini bilmas edi. Yozishda qo'llanadigan Cuperuspapirus o'simligini topib, misrliklar bunga birinchi qadamni tashlagan edilar.

Oxiratda yer yuzida nima qilganligini ollohga ko'rsatishlari uchun bu yaratilgan kitoblarni uning mualliflari bilan ko'mishgan. Bu kitoblarga rasm ishslashda jigarrang uchun tabiiy oxra va siena, qizil rang

uchun kinovar, qora rang uchun kuydirilgan iva, oq bo'yoq uchun gips kabi minerallar asosida yaratilgan shaffof bo'yoqlardan foydalanilgan. Bu bo'yoqlar tuxum sarig'i va gummiarabik bilan qo'shib tayyorlanib, suv bilan suyultirilardi. Boshqacha qilib aytganda bu hozirda biz ishlatib kelayotgan akvarel bo'yog'i edi.

Yuqorida aytib o'tilgan ilk akvareldan hozirgi zamonaviy akvarel bo'yog'i shakli, rangi va janrning asosiy xususiyatlari ancha o'zgarganligini kuzatish mumkin, lekin bo'yoqning tarkibi o'shaligicha qolgan.³

Shuningdek o'sha davrlarda akvarelning Yaponiya va Xitoyda ham ishlatilgani ma'lum. Ipakka ishlovchi rassomlar akvarelda ishslashni hayratlanarli yuqori cho'qqiga ko'targanlar. U davrda asosan qaynoq batikni eslatuvchi shirmalarni bezatish uchun ishlatilgan roketlarga ishslash juda keng tarqalgan

³ Barrington Barber. Advanced DRAWING SKILLS a course in artistic excellence. The Publishing House, Bennetts Close, Cippenham, Slough, Berkshire SL1 5AP, England.2003/s-27



4-rasm

edi. O‘zining jozibadorligi va nafisligi bilan bu ishlar hatto zamonaviy kishilarni ham hayratga soladi. Xitoyda esa chinniga rangtasvir ishlash o‘zining yengil, mo‘jizaviy ranglar uyg‘unligi bilan akvarel texnikasini yodga soladi.

Rangtasvirda ishlashning bir turi bo‘lgan shu texnikada bajarilgan asarlar hamda suv bilan ishlatiladigan bo‘yoqlar akvarel deb atalib, lotincha aqua – suv (fransuzskogo – aquarelle) ma’noni bildiradi. Bo‘yoqni eritishda suvdan foydalanadi va shu sababli nomlanishi ham shundan kelib chiqqan. Akvarel – o‘zining shaffofligi bilan boshqa bo‘yoqlardan alohida ajralib turadi. Bunga nafaqat qo‘llaniladigan materiallar sifati, balki yuqori darajada ishlov berilib maxsus tayyorlangan sifatli bo‘yoq kukunlaridan tayyorlanganligi hisobiga erishiladi.

Shaffof bo‘yoqlarga oq bo‘yoq aralashtirilib tayyorlangan akvarel bo‘yog‘i yuqorida ta’kidlanganidek antik davrdayoq Qadimgi Misrda, undan tashqari o‘rta asrlarda esa Osiyo va Yevropa qit’alarida ishlatilganligi ma’lum. Rassomlarning papirus va guruch po‘stloqlariga ishlangan asarlari bizgacha yetib kelgan. O‘rta asrlarda Yevropa va Rusda cherkov kitoblarini (qo‘lyozmalardagi naqshlar, bosh harflarni bo‘yashda ishlatilgan) bezashda,

keyinchalik minatyura asarlarini ishlashda akvarel bo‘yog‘idan foydalanilgan.⁴

Taxminan XII asrlarda Forsda paydo bo‘lib, butun Sharqqa tarqalgan kitobga minatyura rangtasvirlari ishlash orqali akvarel rangtasviri rivojlana boshladi.

Qadimgi qo‘lyozmalarga illyustratsiyalar ishlash minatyura rangtasviri paydo bo‘lishiga olib keldi. “Minatyura” atamasi lotin tilida qizil bo‘yoq – “minium” so‘zidan olingan. Turli xalqlarning qadimiy qo‘lyozmalariga ishlangan ajoyib minatyura rangtasvirlari bizgacha yetib kelgan.

XVII-XVIII asrlarda akvarel ko‘pgina san’at turlari: gravyura, eskiz, kartina va freskalarning tarkibiy qismiga aylanib ulgurdi. Akvarel ko‘plab grafika va rangtasir materiallari bilan qo‘shib aralash texnikada (guash, tempera, pastel bilan) keng qo‘llanila boshladi. O‘sha davrdagi mashhur rassomlar ichida akvarenga murojaat qilmagan rassomlarni topish juda qiyin edi.

Akvarel - rangtasvir (tusning boyligi, shakl qurilishi va rangda fazoviylik) va grafika (tasvirni ifodalashda qog‘ozning ahamiyati) xususiyatlarini o‘zaro birlashtiradi. Tasvirga harakat hamda jilvalanish effektini beradigan yuvib va oqizib ishslash – bu akvarenga xos usullar hisoblanadi. Mo‘yqalamda ishlanadigan rangtasvir ko‘pincha avval qalamda chizib olinadi.

XV – XVII asrlarda akvarel amaliy bezak sifatida gravyura, rangtasvir asari va devoriy suratlarning eskizlarini bo‘yash uchun qo‘llanilardi. Golland va flamand rassomlari hamda Dyurerning manzaralari bunga misol bo‘la oladi. Shu davrda akvarel A. Dyurer va kichik Gans Golbeynlar diqqatini o‘ziga tortdi. Birinchi marta shu davrda A. Dyurer tomonidan akvarel bo‘yog‘ining texnik imkoniyatlari keng ochib berildi.

Akvarel bo‘yog‘ini o‘zi qo‘lda tayyorlab, unda ajoyib rangtasvir ishlarini yaratdi. Bu vaqtda Dyurer atigi 17-18 yoshda edi. XVIII asrga kelibgina Angliya, keyinchalik Fransiya, Italiya va boshqa mamlakatlarda akvarel mustaqil rangtasvir turi sifatida ko‘zga tashlana boshladi.

Angliya akvarelning ilk vatani deb hisoblanadi. Angliyaning timmay o‘zgarib turadigan atmosfera sharoiti, o‘ziga xos tumanli iqlimiyl tabiat shaffof bo‘yoq sifatida akvarel texnikasining rivojlanishiga katta imkoniyat yaratdi.

XVII asrda Angliya akvareli rangtasvir sifatlari osha borib, shaffof bir xil rangli monoxrom usuldan ranglarga boy rangtasvir texnikasiga aylana bordi.

Angliya akvarel maktabini Jon Kozens, Tyorner, Konstabl, Richard Bonington, Tomas Gertin kabi mashhur rassomlar boshqarardi. Ular o‘zgaruvchan havo va quyoshdan tushayotgan xira yorug‘likda fazoviy perspektivani ifodalash imkonini beruvchi ajoyib akvarel texnikasini ishlab chiqdilar.⁵

Sof akvarel (oq bo‘yoq qo‘shilmagan) XV asr boshlaridan keng qo‘llanila boshlandi. Ranglarning tozaligi, bo‘yoqning shaffofligi, bo‘yoqlar orasidan asosning tusi va fakturasi (asosan qog‘oz, ba’zida ipak va fil suyagi)ning aks etib turishi – uning asosiy xususiyati hisoblanadi.

Kuzatilayotgan ko‘rinishni akvarelda tezkor tasvirlash imkoniyati mavjudligi, unda fazoviylikni ifodalash qulayligi XVIII asr ikkinchi yarmidan

4 Бурчик А.И. “Основы акварельной живописи”. Учебное пособие, Гродно, 2014.2-6.

5 R.Xalilov Akvarel Izdatelestvo “Navruz”. T– 2013. 7-б.

boshlab akvarelning manzara janrida keng qo'llanila boshlanishiga sabab bo'ldi. Akvarelda rangtasvir ijod qilish o'ziga kasb qilgan birinchi rassomlar paydo bo'ldi. Juda ko'p mashhur rassomlar qatorida taniqli Battista Jovanini ham akvarelning xususiyatlaridan mohirona foydalangan. Battista Jovannining chizish usuli qiyin ko'rinsa ham o'rgansa bo'ladigan jihatlari ko'p. Rassomning asarlari yengil chizilgan chiziqlar suvli mo'yqalamda yuvish yo'li bilan birga olib boriladi. Uning chizmatasvirlarini unga yaqin bo'lgan tugallangan mo'jaz rangtasviri bilan solishtirsangiz ajoyib, nafis chiziqlarning o'zidayoq rassom kompozitsiyaning asosiy ilk g'oyasini ifodalab qo'yanining guvohi bo'lasiz.⁶

Boshqa rassomlar tomonidan ham yuvish va pero bilan chiziqlar chizish yo'li bilan akvareldagi ranglar ko'lami umumlashtirilgan, nam qog'ozlarda bir xil tusdagi yorqin bo'lman manzaralar bajarilardi. Buyuk Britaniyada (A.Dj.R.Kozens, T.Gyortin), Fransiyada (J.O.Fragonar, Y.Rober), Rossiyada (F.Y.Alekseev, M.M.Ivanov, S.F.Shedrin, F.M.Matveyev va boshqalar).

XIX ikkinchi choragida Italiyada quruq oq qog'ozga qarama-qarshi rangtuslar, yorug'-soyalar, jarangdor va to'yingan ranglarda bajarilgan ko'p qatlamlı akvarel rangtasviri paydo bo'ldi. Rangtasvir materiali sifatida akvarel – fazoviylik, shaffoflik va noziklik kabi asosiy xususiyatlari bilan ko'plab rassomlarning diqqatini o'ziga jalb qildi. Umumi rangtasvir rivoji ta'sirida akvarel texnikasi asta-sekin boyib, takomillashib tasviriy san'atning mustaqil turiga aylana bordi.

O'zining afzalliklari va badiiy qiymati jihatidan moybo'yoqda bajarilgan kartinalardan aslo qolishmaydigan va yuksak darajadagi imkoniyatlarga ega bo'lgan dastgohli akvarel rangtasviri paydo bo'ldi. Dastgohli akvarel bilan bir vaqtida illyustratsiyavame'moriysohadaqo'llaniladiganakvareltexnikasihamrivojlanabordi.

Rossiyada bu janrda K.P.Bryullov va A.A.Ivanov kabi rassomlar ijod qilishdi.

P.F. Sokolovning shaklga katta, yaxlit rang surtmalari berib, o'ziga xos maydalab ishlov berilgan ajoyib portret rangtasvirlari mitti portret ishslash san'atida yangi davrni boshlab berdi. U qog'ozga oq bo'yoqsiz toza ranglarda ishlardi. Rassom akvarelning shaffoflik va fazoviylik kabi asosiy imkoniyatlaridan unumli foydalanardi. Mitti portretlari hayratlanarli darajadagi oddiyligi, ranglar ko'laming jilvadorligi va suratlarning jozibadorligi bilan kishini o'ziga jalb qilardi. ("Yashil ko'ylakdag'i ayol portreti", "Yosh zabit portreti") XIX asrda akvarel rangtasviri sezilarli darajada rivojlandi. Ko'p rassomlar ishlari uchun rangtasvir ishslashdagi erkinlik, tus ko'lamlarining xilma-xilligi va koloristik yechim xarakterli edi. Bu davrda Fransiyada E.Delakrua, O.Dome, P.Gavarni, Germaniyada A.Mensel, Rossiyada I.E Repin, V.I.Surikov, M.A.Vrubel kabi rassomlarning akvarel texnikasida ishlagan ajoyib ishlari ma'lum. Angliya maktabi gullab yashnadi (R.Bonington, Dj.S.Kotmen, I.Kellou, I.Tyorner).

XIX asr oxiri – XX asr boshlari rus akvarel rangtasviri tarixiga "San'at olami" guruhi a'zolari va ular atrofidagi rassomlar o'zlarining katta ulushlarini qo'shdilar.

Yuqori kasbiy mahorat va san'atning zamонавиy tilini izlash yo'lidagi умумий мақсад sari intilish har xil ijodkorlarni birlashtirib turar edi.

Akvarel texnikasida erkin va oddiy ishlash XX asr uchun rassomlari ijodining xarakterli tomoni edi. Ko‘pgina rassomlar asarlarida grafika va rangtasvirning qo‘shilish holatini kuzatish mumkin. “San’at olami” guruhining A.Y.Golovin, L.S.Bakst, D.N.Kardovskiy, F.A.Malyavin, M.V.Dobujinskiy, K.F.Yuon, B.M.Kustodiyev, Z.S.Serebryakova kabi ko‘pgina a’zolari o‘z asarlarida akvarelni oq bo‘yoq, guash, tempera, pastel, bronza va boshqa materiallar bilan qo‘shib ishlashni ma’qul ko‘rishagan. Lekin K.A.Somova, A.N.Benua va A.P.Ostromova-Lebedeva ijodida sof akvarel texnikasining saqlanganini kuzatish mumkin.

G.S.Vereyskiy, V.M.Konashevich, N.A.Tirsa, K.I.Rudakov, N.N.Kupreyanov, V.V.Lebedev, L.A.Bruni, P.V.Miturich, S.V.Gerasimov, A.V.Fonvizin, L.V.Soyfertis kabi rassomlar o‘ziga xos yorqin va original ranglarda ishlab rus dastgohli akvarel rangtasviri an’analarini davom ettirib keladilar.⁷ Akvarel texnikasining paydo bo‘lishi va rivojlanishi, unda o‘ziga xos rangtasvir ishlash tilini topish yo‘lida izlanish Respublikamiz rassomlari ijodida ham o‘z aksini topdi. Mashhur rassomlarning akvarel ishlari O‘zbekistonda rangtasirning bu turi rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Vatanimizning takrorlanmas go‘zalliklaridan ilhomlangan O‘. Tansiqboev, K. Cheprakov, I. Yurovskiy, G.

Shevyakov, V. Akulin, G.I. Chiganov, Y.I. Taldikin va boshqa mashhur rassomlar katta mahorat bilan o‘zining ko‘plab asarlarini yaratdilar. Bu tasviri san’at ustalari lirik, kishi ruhiyatini ko‘taruvchi tabiat go‘zalliklari va ona zamin ne’matlarini mo‘yqalamning yengil harakatlari bilan akvarelda ajoyib asarlar yaratdilar.

Keksa avlod keyingi avlodga yuksak va ezgu maqsadlar yo‘lida san’atga nisbatan o‘zlarining chin muhabbatlari, o‘zlarining tajriba va ko‘nikmalarini me’ros qilib qoldirdilar. Barcha eng yaxshi an’nalarni qabul qilib olgan yosh avlod shaxsiy ijodiy yutuqlari bilan yurtimiz akvarel rangtasviri rivojiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shdilar. Oxirgi yillarda o‘zbek akvarel rangtasviri ajoyib rassomlar R. Choriev, M. Sodiqov, G’. Boymatov, V. Apuxtin va boshqa yangi iste’dodlar bilan boyidi.

Rang va texnik sifatlari jihatdan Marat Sodiqovning akvarel asarlari juda yuksak qiymatga ega. Har xil rang quymalaridan foydalanib kompozitsiyalarida o‘ziga xos go‘zal koloritdagi takrorlanmas asarlar yaratdi. Rang surtmalarining aniqligi, kerakli joyda kuchaytirish, ba’zi joylarda rang jo‘shqinligini so‘ndirish kabi akvarelning texnik imkoniyatlaridan oqilona foydalanish rassomning yuksak mahoratini belgilab turibdi. Kishi ma’naviy dunyosiga chuqur ta’sir qiluvchi, badiiy g‘oyalar bilan sug‘orilgan asarlari o‘ziga xos mazmuni bilan tomashabinni o‘ziga rom etadi.

N.D. Ten, M.N. Nabiyev, N.P. Bannikov badiiy-grafika fakulteti pedagog-rassomlari ham akvarel rangtasvirida ijod qilishdi. Akvarel rangtasviri xususiyatlari o‘ziga xosligidan mohirona foydalanib, juda ko‘plab shogirdlari, pedagog-rassomlarga ular o‘z tajribalarini me’ros qilib qoldirdilar. Shunday ajoyib rangtasvir ustalaridan dars olgan R.Sh. Xalilov, M. Djumashevlar ham akvarelning respublikamizdagi rivojiga o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar.

Olam go‘zal va jozibador, kishini to‘lqinlantiruvchi dunyo ko‘rinishlari, uning go‘zalliklari, murakkabligi va ko‘pqirraligini turli

⁷ Бурчик А.И. “Основы акварельной живописи”. Учебное пособие, Гродно, 2014.3-6.

ranglar orqali tomashabinga yetkaza olish – bu san’atning asosiy vazifasi hisoblanadi. Bugungi kunda akvarelchi rassomlar ham turli usullarda bu vazifaning yechimini topib, akvarelda ajoyib obrazlarni yaratishmoqda.

Akvarel rangtasviri texnikasining paydo bo‘lishi va rivojlanishi haqidagi keltirilgan qisqacha akvarel tarixi rangtasvirning bu turi qanchalik ommaviyashib ketganligini isbotlab turibdi. Kimdir uchun akvarel kartinalarga eskiz ishlashda qo‘llaniladigan oddiy material, boshqalar uchun moybo‘yoqdan kam ahamiyat kasb etmaydigan, uchinchi guruh rassomlari uchun asosiy ijodiy faoliyat turiga aylanganligining guvohi bo‘lamiz. Avloddan-avlodga o‘tgan sari akvarelning texnik qo‘llanishi va usullari takomillasha borib, uni baholash kriteriyalari aniqlandi, keng texnik vositalar, har xil ishlash usullari va janrlari paydo bo‘ldi.

Mashhur rassomlar tomonidan yaratilgan ajoyib asarlar akvarel texnikasida ishlash vositalari va undan foydalanish imkoniyatlari cheksiz ekanligini isbotlab turibli. Buyumlar shakli va fakturasini ifodalashda yetarli darajadagi tajriba, texnikani to‘g‘ri tanlash va rangtasvir ishlash mahorati orqali yorug‘lik va ranglarga boy, g‘aroyib obrazlar xilma-xilligiga erishish mumkin.

Akvarel asosan fazoviy ko‘rinishlardagi nozik rang va tuslar ko‘lamini ifodalashda katta imkoniyatlarga ega. Kasbiy tayyorgarlikka ega akvarelchi rassom uchun bu bo‘yoq texnikasida – o‘zgaruvchan atrof muhit, yoritilganlik holati, buyumlar materiali, fazodagi planlilikni berish imkoniyatlari mavjud. Shu bilan birgalikda akvarelchi rassomdan an’anaviy akvarel rangtasviri usul va texnikalarini qo‘llash ko‘nikmalarini mukammal o‘zlashtirish, tasvirlash asoslari, materiallarning o‘ziga xos xususiyati va tarkibini o‘rganishda sinchkov bo‘lishga o‘rgatadi. Sirdan qaraganda yengil ko‘ringani bilan akvarel rangtasviri boshqa rangtasvir turlariga (guash, tempera, moybo‘yoq) nisbatan ma’lum darajada qiyin hisoblanadi. Bunday qiyinchiliklar buzilgan akvarel rangtasviriga tuzatishlar kiritilganda yoki ustidan ishlanganda qog‘oz yuzasi buzilishi va qorayib ketishi bilan izohlanadi. “Shuning uchun ishni boshlash oldidan rassom nimani tasvirlashni hohlashi va uni qanday amalga oshirish haqidagi aniq tasavvurga ega bo‘lishi kerak”, - deb yozadi rus rassomi A.P. Ostroumova-Lebedeva.

Rang qatlamlarining shaffofligidan foydalanib ishlanadigan an’anaviy akademik akvarel ishlash usulini o‘rgatishning hozirda aniq metodikasi ishlab chiqilgan va yuqori darajada o‘zlashtirilgan. O‘tgan asrning ikkinchi yarmida akvarel rangtasvirining tarixiy rivojlanishidagi materiallar, texnik usullar, obrazlar va boy tipik sifatlari, avval foydalanilmagan akvarelning yangi qirralarini ochib berdi.

Akvarelning tipik sifatlari asosan ikki faktor: materiallar (qog‘oz, bo‘yoq, suv, bo‘yoqqa qo‘sishimcha ashyolar) va muallifning ijodkorlik xususiyatlari orqali aniqlanadi. Tizimdagi birinchi tarkibni avvaldan tahlil qilish, tizimlash, va hatto aniq belgioash ham mumkin (har xil sintetik va tabiiy qo‘sishimchalardan foydalanib yaratilayotgan ishning texnik natijalarini avvaldan aniqlasa bo‘ladi), ikkinchi faktor butunlay rassomning xarakter xususiyatlari va birinchi navbatda uning improvizatsion qobiliyati va tafakkur kengligiga bog‘liq. Badiiy ta’lim amaliyotida bu ikki faktor ajralmasdir.

Akvarel rangtasviri ranglar qatlaming keng diapazondagi shaffoflik (tasvirlash jarayonidagi qog‘ozning o‘rnii) xususiyati va suvli bo‘yoqning yoyilishi, harakati, ta’sirchanligi bilan xarakterlanadi. Aynan mana shu sifatlar akvarelning xususiyatini aniqlab beradi. Zamonaviy akvarel rangtasviri rassomdan nafaqat rangtasvirning akademik qonun-qoidalari to‘g‘risidagi bilimlar, balki rangtasvir ishslash jarayonidagi harakat va tezkor obrazli fikrlashni ham talab qiladi.

Akvarelning yoyiluvchanligi natijasida paydo bo‘ladigan texnik effektlar muallif tomonidan oldindan aniq belgilanishining iloji yo‘q. O‘ziga xosligi, betakrorligi, oldindan aytib bo‘lmasligi, bu akvarelning eng noyob sifatlari hisoblanadi. Oxirgi natijani ko‘zdan qochirmagan holda ishslash, asosiy g‘oyani saqlash bilan birga vazifaga tuzatishlar krita olish akvarelchi rassom uchun eng zarur mahorat sanaladi. Boshqa texnika va materiallardan foydalanib akvareldagi obrazlarni bajarib bo‘lmasligi akvarelning qanchalik noyob ekanligi va uning tasviriy san’at morfologiyasi tizimida mustaqil tur sifatida ahamiyati katta ekanligining isboti bo‘lib turibdi. Zamonaviy an’analar asosida akvarel rangtasvirining rivojlanishi badiiy ta’limdagi har xil mutaxassislikdagi rassomlar tayyorlanadigan o‘quv jarayonlarida qo‘llash imkoniyatini kengaytiradi.

Akvarel – maxsus badiiy ta’lim tizimida keng qo‘llaniladigan rangtasvir turlaridan biri hisoblanadi. Bu eng avvalo tasvirlash asoslari haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish, ranglar uyg‘unligini yaratish, rang-tusga oid kompozitsiyalar tuzish, uch o‘lchamlilik, fazoviylik, materiallik va boshqa ko‘rinishlarni ifodalash jarayonida ishlatish uchun nisbatan qulayligi bilan izohlanadi.⁸

Guash

Guash bo‘yog‘i esa akvarel bo‘yog‘ining tamoman aksi bo‘lib, u kabi tiniq, jarangdor tus bermaydi (5-rasm). Ranglari yorug‘likni yutganligi sababli uning tagidagi qog‘oz ko‘rinib, sezilib turmaydi. Tarkibi esa akvarelniki singari – bo‘yoq kukuni va uni bog‘lovchi moddalardan iborat. Ammo ular maxsus yog‘och yelimi bilan mo‘tadil nisbatlarda aralashtirilgan bo‘ladi. Guash bo‘yog‘ining yana bir muhim jihatni uning oq bo‘yoq bilan aralashtirib ishlatilishidir.

Shuning uchun uning ranglari unchalik jarangdorlik kasb etmaydi. Bo‘yoqni ishlatish uchun mo‘yqalamlar ham maxsus tanlanib olinadi va ular juda yumshoq bo‘lmasligi, bir oz dag‘alroq bo‘lishi maqsadga muvofiqlikdir. Tasvir ishlanadigan sath, ya’ni qog‘oz yoki karton ham silliq bo‘limgani yaxshi. Uning yuzasi iloji boricha yelimli qoplama (grunt) bilan ishlov berilgan bo‘lishi zarur. Shunda uning sathiga guash bo‘yog‘ini yaxshi surtish mumkin bo‘ladi. Guash ko‘pincha grafik ishlarni, bezaklarni, plakatlarni ishlashda va qisman rangtasvirlarni bajarishda foydalaniladigan, suv qo‘shib ishlatiladigan, tez quriydigan bo‘yoqdir. U bilan tasvirlar bajarishning murakkabligi shundaki, bo‘yoq surtilgan paytda to‘q, qurigandan keyin esa ochlashib ko‘rinishidir. Shu jihatini hisobga olib turilmasa, ranglar orasidagi muvofiqlikni ushlab turish ancha qiyin kechadi. Buning uchun odatda har bir surtiladigan asosiy ranglar alohida-alohida maxsus idishchalarda tayyorlanib olinib, so‘ng unga bir oz boshqa qo‘sishimchalar aralashtirib tasvir

⁸ X.E.Sultanov. RANGTASVIR (Akvarelda natyurmort ishslash). O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2019., 6-11 b.



5-rasm

ishlanadi. Ranglarni ishlatalishda, uning to‘q-ochligi, rang tuslarining qanday topilganini doimo tekshirib, bilib turish uchun bir bo‘lak qog‘ozga tayyorlangan aralashmani surtib aniqlab, so‘ng qo‘llansa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Guash bo‘yog‘ida juda ko‘p o‘tmish rassomlari ham asarlar yaratganliklari ma’lum. Ularning bir-biridan ajoyib natyurmort, manzara, teatr bezaklari, portret, plakatlari jahon tasviriy san’ati xazinasidan o‘rin olgan. Ammo shunisi borki, bu nozik, saqlanishi ancha qiyin bo‘lgan ishlarning ayrimlari, ayniqsa quyuq qilib ishlanganlarining bo‘yoqlari o‘chib, to‘kilib ta’mir talab bo‘lib qolganligi sir emas. Guash bo‘yog‘ida tasvirlarni bajarganda iloji boricha har bir rang tusi uchun alohida-alohida mo‘yqalam tutgan ma’qul. Shunda ranglarni tiniq va toza, jozibali chiqishiga erishiladi. Guash bo‘yog‘ida ranglavha va ayniqsa portretlar, hamda odam tana qismlarini tasvirlash, nozik rang tovlanishlarini berish qiyin ishdir. Buning uchun ancha muncha mahorat, bilim, tajriba kerak bo‘ladi. Tasvir ishlashning yo‘l-yo‘rig‘i, usullarini puxta egallash esa ko‘p amaliy mashg‘ulotlarni talab etadigan jarayondir.⁹

Katta-katta mahobatli asarlarning xomaki nusxalari hamda kompozitsiya loyihibalarini, bayram munosabati bilan tayyorlanadigan suratlarni ham guashda bajarish qulaydir. U bilan keng qamrovli, mahobatli tasvirlar tez ishlanadi.

Ko‘mir

Barcha chizilgan materiallar orasida eng yoqimli va ifodali materialdir. Bu rasmdagi asosiy tonal munosabatlarni tezda o‘rnatishga imkon beradi. Ko‘mir qalamlari grafit kabi qattiqlikning bir necha navlariga kiradi. Yumshoq ko‘mir ko‘pincha katta, ifodali chizmalarda massalarni yaratish uchun juda yaxshi; holbuki H va HB kabi qattiq siqilgan ko‘mir yoki uglerod qalamlari kichikroq

⁹ Shuhratovich, I. U. (2020). Technologies of working on graphic materials in fine arts classes (on the example of working still life in the pen. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (4), Part II, 41-45.



6-rasm

miqyosda ishlashga ko‘proq mos keladi (6-rasm).

Uzoq va o‘tkir nuqtalarni keskinlashtirish oson bo‘lgan qattiq ko‘mir qalamlari qo‘lingizning holatini o‘zgartirib, qalin va ingichka chiziqlarni tezda hosil qilish uchun ishlatilishi mumkin.

Keng va chiziqli ohanglarni ham bajarish mumkin. Qalamni yon tomonga bosib foydalanilsa asta-sekin keng ko‘lamli massaga ohang hosil qilib, ko‘mir milining uzun qismini varaqlastingiz mumkin. Ko‘mir tayoqchalari xomaki tasvirlar chizishda ko‘proq ishlatiladi. Ko‘mir tayoqchalarini uy sharoitida ham tayyorlasa bo‘ladi. Misol uchun: ko‘mir tayoqchalarini tayyorlashning oddiy usulini o‘rganamiz. Buning uchun uzum tokini yoki atir gul novdasini qizarib yaxshi pishgan novdasidan 5-10 ta bo‘lakchalaridan, bo‘yiga 10-12 santimetr, eniga 8-9 millimetrr bo‘lganlarini tanlab olamiz. Biron bir mahsulotlardan bo‘sagan temir (banka)ni olib yaxshilab ichini tozalab, quritib qo‘yamiz. Bu idish ichiga tok novdalarini tik holatda joylab qum bilan idishni to‘lg‘izamiz. Og‘zini qalinqoq qilib loy bilan suvab qo‘yamiz, ammo shu narsani esdan chiqarmasligimiz

kerakki, loy bilan suvaganda og‘zidan kichikroq bir teshikcha qoldirishimiz shart. Keyin tandirda yoki o‘choqda olovga qo‘yib qizdiramiz. Cho‘g‘ga bo‘yi barobar ko‘mib qo‘ysak ham bo‘ladi. Temir idishning qizishi tufayli biz qoldirgan teshikchadan ko‘kish olovsimon tutun chiqa boshlaydi. Ko‘kish olovsimon tutun tugashi bilan idishni olovdan (cho‘g‘dan) olish kerak, chunki ko‘mir qalamcha tayyor bo‘ladi. Tayyorlangan qalamchalar bilan qog‘oz yuzalariga tasvirlar ishlashimiz mumkin. Ishlangan tasvirimiz uchib ketmasligi uchun ozgina shakarni eritib qog‘ozga tasvir ustiga engil puflanadi, natijada chizilgan rasmlar uchib ketmaydi. Shu narsani unutmanki, uzum tokining qalamchalaribir-birigajudazichholdajoylashishikerak.



*7-rasm.
Burduk - ko‘mirda
chizmalar. 2007*

Yoki hammasini bir-biriga zikh qilib bog'lab chiqsa ham bo'ladi. Ota-bobolarimiz bunday ishlarda kulolchilik idishlaridan foydalanishgan. Rossiyada esa oq qayin daraxtining shoxchalaridan foydalanishadi. Zavodlarda esa 3000 issiqlikda havosiz joyda 3 soatdan 5 soatgacha qizdirish usulida ko'mir qalamchalari tayyorlanadi.

Sangina

Sangina qalamtasvirlarni ishslashda qo'llanilishi ham foydali. U bilan har qanday tasvirni tez va ifodali qilib chiqarsa bo'ladi, faqat buning uchun uning texnikasini egallash kerak bo'ladi.

Ma'lumki, sanginaning to'q jigarrang hamda qizg'imtir jigarrang turlari bo'ladi. Ularni ham tus berilgan oxrasimon rangli qog'ozlarda unumli qo'llash mumkin. Sanginani surkatib soyalarning katta-katta qismlarini yopish imkoniyati ham borligi ish rivojini tezlashtiradi.



8-rasm.

Yuqorida keltirib o'tilgan barcha tasvirlash vositalarini uzoq muddatda bajariladigan, hamda tezkorlik bilan ishlanadigan qalamtasvirlarda birdek muvaffaqiyat bilan qo'llash mumkin.

Odam qomatini turli holatlarda, vaziyatlarda harakatli ko'rinishlarda interer muhiti sharoitida tasvirlash ancha murakkab vazifalardan hisoblanadi. Agar ular tez muddatda ishlanishi kerak bo'lsa, tezchizgi lavhalari ko'rinishida bo'lsa, bir nechta tasvirni bitta qog'oz sathida chiroyli kompozitsiyada joylashtirib bajarish ko'p samara beradi. Chunki bunda har bir chizilgan har turli holatlarda turgan odamlar qiyofasi o'zaro solishtirib ishlanadi, o'lchamlari bir-biriga moslanadi va shuning natijasida tasvirlar guruhi bog'langan mazmun kasb etib badiiy ko'rinishga ega bo'ladi.

Inson qaddi-qomatini chizishga albatta tezkor tasvirlar ishslash, ko'proq



9-rasm. Anniabale karrachche, sangina va mil.

mashq qilish talab etiladi. Ayniqsa suratning qismlari nisbatlari, katta shaklning yaxlitligiga e'tibor qaratilishi kerak. So'ng tana holati uning qanday harakat holatida namoyon bo'layotganligi muhim bo'lib, uni to'g'ri topish va aks ettirishi lozimdir.¹⁰

10 Ю.М. Кирцер Рисуиок и живопись, Москва «Высшая школа» 2003 й.

Tempera

O'n to'qqizinchi asrning oxirida, allaqachon unutilish darajasiga kelib qolgan tempera yana rassomlar ustaxonalariga qaytganida, Serov, Rerix, Golovin, Borisov-Musatov singari taniqli rassomlar uni bajonidil ishlatalishdi. Valentin Serov kartonga temperada ishlashni afzal ko'radi va ba'zida uni guash bilan birgalikda ishlataladi. Ushbu materialdagi uning asarlari, ko'plari mashhur tarixiy nashrga ishlangan rasmlardan iboratbo 'lgan, kichikligi varangtasvirdabo 'yoqqatlamining zichligibilan ajralib turadi.

Tempera bo'yoqlari (10-rasm) bo'yovchi moddalar (pigmentlar) va ularni bog'lovchi moddalar (emulsiyalar) dan qo'shib tayyorlanadi. Emulsiyaning tarkibiga qarab temperalar oqsilli, tuxum-sarig'ili, tuxum-moyli, mumli va kazeinli xillarga bo'linadi. Yelimli bo'yoqlar va tempera o'zining har xil turlari bilan XV asrgacha rassomlar uchun eng ma'qul va ommabop rangtasvir ashyosi hisoblangan. Tempera bo'yog'ida ishlashning asosiy usullari:



10-rasm.

- 1) bo'yoq aralashmasining oldindan tayyorlab olinishi;
- 2) kartinadagi ma'lum bir yuzaga tuslarni qo'yish va tusning toza chiqishini ta'minlash maqsadida qo'yilgan bo'yoq chetini oldingi qatlama rangi bilan yedirib qo'shib yuborish. Bunday ishlash kechki flamandlar usuli sanalib, shu jumladan Rubensga ham tegishli;
- 3) Qadimdan to Jorjone va Titsian davrigacha amalda qo'llab kelingan bo'yoqni yuqa holatda surkab ishlash;
- 4) Qadimdan qat'iy prinsiplar asosida qo'llanib kelinadigan usul - rangtasvirda soyalarni xarir va iliq tuslarda ishlash yoki ularga qarama - qarshi quyuq xamirsimon rang surtmalari holatda sovuq tuslarda ishlash;
- 5) Bo'yoq ichidagi oldin qo'yilgan bo'yoq rangi yoki grunt rangining ko'rinish turishiga erishish maqsadida ranglarni yupqa suyuq holda (harir parda ortidan ko'ringani kabi) ustma - ust qo'yish usuli.

O'rta asrlarda yashab ijod qilgan nemis rassomlarining temperada ishlangan rangtasvirlarida asosan oq grunt qo'llanilganligini ko'rish mumkin. Ularning asarlarida rangtasvirdagi bo'yoq qatlami 2-4 ta qatlamdan iborat bo'lib, unda oldin qo'yilgan ranglar va gruntning keyingi rang ostidan ko'rinish, hayratlanarli darajada ranglarning optik aralashuviga erishilgan. Shunday qilib qalin xamirsimon

holdagi quyuq qizil rang ustidan yuqa ko‘kish bo‘yoq qo‘yilib undan to‘q jigarrang tus hosil bo‘lishiga erishilgan. Neytral – kulrang hosil qilish uchun o‘sha qizil rang ustidan harir yashil rang qo‘yilishi bilan erishishgan. Shaffof sariq rangni yorqin qizil rang ustidan qo‘yib zarg‘aldoq rang hosil qilingan. Tillarangni ifodalash uchun issiq bargrangni qalin qo‘yilgan qizil (kinovar) ustiga qo‘yilgan. Bundan tashqari to‘q sariq ustidan qizil (kinovar) qo‘yish, tillarang va uning ustidan shaffof jigarrang qo‘yish bilan ham hosil qilishgan.


Tempera bo‘yoqlari bilan yaratilgan asarlar rang qatlami mustahkamligi bilan ajralib turadi, yorilib ketmaydi, tuslari o‘chmaydi, dastlabki holati, tiniqligini ko‘p yillar saqlaydi. Bunday sifat darajasini moybo‘yoqda ham bo‘lmasligini hisobga oladigan bo‘lsak temperaning afzalligini tasavvur qilishimiz oson bo‘ladi. Tempera texnikasi o‘zining rang-barang uslublari bilan ham moybo‘yoq rangtasviridan qolishmaydi. U bilan tezkor «Alla prima», quyuq surtma, lessirovka, ko‘p qavatli ishlov berish yo‘llarini ko‘plab uzoq muddatli rangtasvir ishlarni bajarish mumkin. Bunda moybo‘yoqdagi kabi bo‘yoq qurishini uzoq kutib o‘tirilmaydi, chunki tempera tezroq quriydi. Bir kundan keyin ishni yana davom ettirish imkonini beradi. Bo‘yoq qatlami bir tekis qurishi ham uning xususiyatlaridan biridir. Qo‘llab olingan mo‘yqalam bilan ishlangan sath ustidan bir tekis surkab o‘tish ranglar orasini yumshatib uyg‘unlik kasb etadi. Temperada juda yorqin, shu bilan birga juda nozik rang xususiyatga ega bo‘lgan turli uyg‘unlikdagi rangtasvirlarni bajarish mumkin.



11-rasm. V.E. Borisov-Musatov. Singlim bilan avtoportret. 1898. Xolst, tempera, moybo‘yoq. Rus davlat muzeyi, Sankt-Peterburg

Tempera asosan keng miqyosda mahobatli (monumental) rangtasvir asarlar yaratishda qo'llanadi. Ular devorning katta-katta sathlarida tasvirlar yaratishda qulay vositadir. Temperada natyurmortlar ishlansa ham ajoyib chiqadi. Chunki u bilan juda tiniq, chiroyli tasvirlar ishlashga erishish mumkin. Buning uchun natyurmortdagi «aksesuarlar» - qo'yilmalar ham yorqin ranglilarini topib, muvofiqlashtirib tashkil qilinishi kerak. Guash va temperada tasvirlar ishlashda maxsus ularga moslangan Ashe, jihozlar kerak bo'ladi. Avvalo bo'yoqning o'zi sifatli bo'lishi talab etiladi.

Temperada ishslash uchun material gruntlanishi lozim. Ular qog'ozda, kartonda, matoda, faner yoki taxtaga surtib tayyorланади. Buning uchun asosan elimdan foydalaniladi. Eng yaxshi asos bo'lib maxsus tayyorlangan gruntlangan mato xizmat qiladi. Uni xuddi moybo'yoq texnikasiga tayyorlanadigan mato singari ishlovdan chiqariladi. Tempera uchun yassi va dumaloq ko'rinishdagi yumshoq, yarimyumshoq, shuningdek dag'al mo'yqalamlar ishlatiladi. Palitra ham yuzasi chuqurroq plastmassadan yoki chinnidan yasalgan bo'lishi kerak. U chetlari bukib tayyorlangan va emal surtilgan metaldan tayyorlangan bo'lishi ham mumkin. Shundan undagi suyuqroq qorishtirilgan bo'yoqlar oqib ketmaydi.



12-rasm.

Yudayev Rachey Yuryi- Plastik idish va pomidorli natyurmort

Palitraga chiqarilgan bo'yoqlar ishslash tugagach usti nam latta bilan olib quyib saqlanadi. Shunda u keyingi safar ishlatishgacha qurib qolishdan saqlanadi.¹¹

Sous

Sous (12-rasm) sabzavotli yelim yoki loy qo'shilgan holda piyozdan siqilgan silindrsimon tayoqchalar shaklida tayyorланади. Sous bilan ikkita usulda chizishingiz mumkin. "Quruq" usulda chizish maydalangan sous kukuni bilan amalga oshiriladi. Qorong'i joylarning ohang kuchiga sousni qayta qo'yish orqali erishiladi. "Ho'l" usul quydagicha: maydalangan sous kukuni suv bilan kerakli mustahkamlikka qadar suyultiriladi. Dastlab, cho'tka bilan o'rtalig'ini eritma o'ziga xos va

¹¹ Ismatov U.Sh. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini turli grafik materiallarda ishslashga o'rgatish (tempera bo'yog'i misolida). МУФАЛЛИМ ҲӨМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ Илимий-методикалық журнал ISSN 2181-7138, № 3/2 2021 жыл

tushadigan soyalarni qoplaydi, keyin zaif eritma shakl va atrof-muhitning katta qismlarini qoplaydi. So‘ngra tasvirni retush qalamida ishlansa, o‘chirg‘ichdan ham unumli, bilib foydalanilsa har qanday o‘quv-mashq vazifani namunali va chiroyli qilib chiqarish mumkin. Tasvirning eng yorug‘ qismlarini o‘chirg‘ich yordamida ustalik bilan o‘chirib bo‘rttirilsa, eng to‘q soyalarning sathi qora sous bilan bo‘yab yopilsa ish hajm tomondan juda fazoviylik kasb etadi. Shunday qilib, “ho‘l” sous bilan ishslash usuli akvarel texnikasiga (grizayil) o‘xshaydi. Siz sous bilan birgalikda ishlappingiz mumkin.

Tush

Tush - bu qora suyuqlik, ishlatilgan retseptga qarab uni san’at bozorida ikkita asosiy turda sotib olish mumkin: suvga chidamli va suvda eriydigan. Ishlab chiqaruvchilar boshqa tarkibiy qismlarning tarkibidagi pigment foiziga qarab har xil turdag'i qora rangdagi tus ishlab chiqaradilar. Ularning orasidagi eng muhim farq ularning yengilligi darajasidir. Tarkibi, uning tarkibiga qo‘silgan shellak yoki jelaten tufayli suvga chidamli (lak ishlab chiqarishda ishlatiladigan ingichka plitalar yoki yoriqlar ko‘rinishidagi material). Ushbu tush eng bardoshli hisoblanadi. Uni suv bilan suyultirish mumkin, suvga chidamli xususiyatlar faqat to‘liq quriganidan keyin paydo bo‘ladi. Suvda eriydigan tush suv bilan yaxshi aralashadi (masalan, tonna gradatsiyasida), lekin quriganidan keyin suv bilan yuviladi va unchalik bardoshli emas; suvga asoslangan boshqa mahsulotlar bilan birgalikda ishlatish maqsadga muvofiq emas. Agar biron-bir maqsad uchun tush suvli eritmasini, masalan, akril yoki akvarel bilan to‘ldirishda birlashtirmoqchi bo‘lsangiz, suv o‘tkazmaydigan tush oling. Qoida tariqasida, tush tasodifiy to‘kilishdan qo‘rmasdan, har qanday vositani tush bilan osongina to‘ldirishga imkon beradigan maxsus nozullar, pipetkalar yordamida shisha yoki plastik bankalarda soliladi. Umumiy qoida



**13-rasm.
Yapon rasm (asarlar)
“Irina Levasheva galereyası**



**14-rasm.
Oddiy tush chizmalari. (Tush)**

mavjud - agar u ishlab chiqarilganidan ikki yildan ko‘proq vaqt o‘tgan bo‘lsa, tush sotib olmang. Tezograflar deb ataladigan vositalardan foydalanganda sizga ushbu vositalar uchun maxsus ishlab chiqilgan nurga chidamli tush turlari kerak bo‘ladi. Grafik ish uchun niqoblarning ba’zi turlari (xususan, pigmentga emas, bo‘yoqqa asoslangan) so‘nishga moyildir; shuning uchun nurga chidamli materialni tanlang.

Ballpoint qalam (Sharikli ruchka)

Sharikli ruchkalarining katta afzalligi shundaki, ular deyarli har doim mavjud. Bo‘yoq manbai tanaga birlashtirilgan va qo‘srimcha ravishda barcha turdag'i qog‘ozlar tomonidan yaxshi qabul qilinadi. Bo‘yoq pastasini sharikli ruchkaga yetkazib berish bir zumda amalga oshiriladi, buning natijasida chiziq to‘g‘ridan-to‘g‘ri, osongina joriy xarakterga ega bo‘ladi. Sharikli ruchka tezlikni o‘lchagichdan tubdan farq qiladi. Chiziq toza va aniq bo‘lishi uchun tezkor mashinani qat’iy vertikal holatda saqlash kerak. Shu bilan birga, sharikli ruchka bardoshli, arzon va sifatli vositadir. Ballpoint ruchkasidan foydalanib, chiziq juda tez chiziladi; tutqichning o‘zi qo‘lda qulay va oson pozitsiyani egallaydi. Uning asosiy kamchiligi bo‘yoq pastasini uzoq vaqt quritishdir - ba’zan bu ikki kungacha davom etadi. Shuning uchun, chizish xavfidan qochish uchun toza qog‘oz varag‘i bilan yoping. Bundan tashqari, ushbu himoya ekranning burchagi bilan qalamning uchidan ortiqcha siyohni olib tashlappingiz mumkin. Aks holda, novda uchida to‘plangan makun naqshni buzishi mumkin, yoki chiziq egiluvchan bo‘ladi. Rassomlar orasida ingichka uchlari bo‘lgan qalamlarni tanlash amalga oshirilayotgan ishga bog‘liq. Katta eskizlar uchun o‘rtalikdagi qalam kerak; kichkina - ingichka uchi bo‘lgan qalam bilan bajarilishi kerak. Qoida tariqasida, quyidagi amaliyat eng yaxshi natijalarni beradi:



15-rasm. Andrey Poletov. Sharikli ruchka

chiziqlarning haqiqiy qalnligini ko‘rish uchun qog‘ozga bir nechta chiziq qo‘ying. Sharikli naycha yoki favvora qalam bilan ovlash tez-tez uchraydigan vertikal yoki gorizontal chiziqlar yoki ularning kombinatsiyasi (kross-lyuk) yordamida amalga oshiriladi. Chiziqlar orasidagi masofa qanchalik kichik bo‘lsa, ranglar boyroq bo‘ladi.

Markerlar

Ixtirodan beri markerlar doimiy ravishda takomillashtirilib, muhim tarkibiy o‘zgarishlarga duch keldi - ish sifati yaxshilandi. Ular yanada bardoshli va chidamli materiallar - masalan, kigiz, neylon, plastmassa va ko‘pik materiallari tufayli mustahkamlandi. Markerlar uzoq vaqt davomida keskin va qattiq bo‘lib qoladi va bo‘yoq ta’minoti silliq bo‘lib, bu mukammal chiziq sifatiga aylanadi. Markerlar qalnligi va shakli bilan farq qiladi; yupqa uchli va og‘irroq markerlar bilan mashhur ruchkalar, uchi chisel yoki xanjar shaklida. Ular yozish va grafik chizish uchun juda mos keladi. AD belgilarida hatto bir-birining o‘rnini bosadigan maslahatlar mavjud; ularning ba’zilari (xanjar shaklida) turli xil chiziqlarni olish uchun o’tkir pichoq bilan kesilishi mumkin. Ikki uchli markerlar bitta va bitta vosita yordamida keng va ingichka chiziqlarni chizish uchun qulaydir. Cho‘tkasi shaklidagi markerning uchi yumshoq ko‘pikdan yasalgan va uni cho‘tka va oddiy marker sifatida ishlatish mumkin. Barcha vositalar suvgaga chidamli siyoh turlari bilan to‘ldirilgan, ular



16-rasm. Markerlar bilan arxitektura eskizlari ishlash

yuqori nurga ega va deyarli quriydi. Biroq, bu bo‘yoqlar alkogolga asoslangan va mutaxassislar tomonidan toksik deb hisoblanadi; ular faqat shamollatiladigan joyda ishlashlari kerak. Suvda eriydigan siyoh bilan to‘ldirilgan markerlar toksik emas va hidsizdir. Ammo ulardan ba’zilari engil emas va agar siz ishning bir qismini parchalashga harakat qilsangiz, tushni bulg‘ash mumkin. Ushbu turdag“ofat” ning oldini olish uchun qog‘ozni niqoblash usulidan foydalaning. Bundan tashqari, ko‘plab mutaxassislarning fikriga ko‘ra, bu siyoh juda sekin quriydi. Bugungi kunda ishlab chiqarilgan markerlarning diapazoni turli xil rang soyalarining kaleydoskopidir. Ular yorqin, pastel va lyuminestsent navlarni o‘z ichiga oladi. Suvda eriydigan boshqa bir vosita, masalan, yumshoq, egiluvchan ko‘pik uchiga ega bo‘lgan Markerlar 3000 Brush marker kabi cho‘tka uchi bo‘lgan marker. Asbob marker sifatida ham, cho‘tka sifatida ham ishlatilishi mumkin - ular ingichka va keng, hal qiluvchi zarbalarini qo‘llashlari, shuningdek silliq tonal o‘tishlarni va lyuklarni yaratishi mumkin.¹²

Yorug‘likka qarshi qo‘yilgan mavzuli murakkab natyurmort kompozitsiyasini ishlash.

Mavzuli murakkab natyurmort ustida ishlashning o‘ziga xosligi, ularning kompozitsiyasini mukammalroq hal etishda, har bir buyumning shaklini atroficha fikr yuritib aniqlashda har bir buyumning sirtini tasvirlab, uning materialini aniq ko‘rsata olishda namoyon bo‘ladi. Pastanovkaga kiradigan har bir buyumning shaklini perspektiv qisqarishlari bilan chizib olgach ularning och-to‘qlik darajalarini farqlagan holda asosiy soyalar qo‘yib chiqiladi.

Yorug‘likka qarshi qo‘yilgan natyurmort tasvirini ishlash birmuncha murakkabdir. Bunda buyumlarning rangi birmuncha o‘zgarib, to‘q siluet bo‘lib ko‘rinadi. Bu qo‘yilmani tasvirlashda talabalarning asosiy kamchiligi qo‘yilmadagi buyumlarni qoraytirib yuborishidir. Natyurmort qo‘yilmasidagi har bir buyumlarning, gipsli boshning soya qismidagi rang va tus refleks kuchi orqali aniqlanadi. Yorug‘lik qanchalik kuchli bo‘lsa, ranglar shunchalik to‘yingan bo‘lib refleksni yanada kuchaytiradi. Boshning shakli yanada yaqqol ko‘rinadi. Biroq, yorug‘lik kuchi susayganda rang to‘yinganligi pasayib reflekslar xiralashadi. Odatda bouyumlarning soya qismi intererdagi reflekslar ta’sirida iliq tusli bo‘ladi. Boshning yoritilgan qismlaridagi umumiyl rang ham o‘zgaradi. Bunday yoritilgan qo‘yilmani ishlash jarayonida talabalar ko‘pincha soya qismidagi reflekslarni kuchaytirib yuborishadi. Talaba unutmasligi kerakki, gipsli boshning soya qismi bilinar-bilinmas reflekslar yordamida shakllanadi. Faqat shundagina modelni to‘g‘ri va yaxlit ifodalash mumkin. Soyalar bir yo‘la narsalarning panasida, yopiq tekislikda, ustida va devorda belgilanadi.

Bu esa tasvirda naturadagi kabi to‘q birligiga erishishi va har bir narsaning o‘ziga xos shaklini to‘laroq ochib berishga imkon beradi. Narsalar shaklini aniqlashtirib borib, natyurmortdagi nozik farqlarni topishda avval yirik shakllarni, katta qismlarini matodagi asosiy burmalarini tasvirlash, so‘ngra esa mayda va

12 Ismatov Ulfat Shuhratovich and Sobirov Sarvar Tursunmurotovich. Development of Creative Competence in Teaching Future Teachers of Fine Arts to Work in Graphic Materials. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 05, 2020 ISSN: 1475-7192

chakana tafsilotlarini tasvirlashga o‘tish kerak. Bunda chiziqlar albatta narsalarning shakliga monand yo‘nalishda bo‘lib, uning shaklini bo‘rtirib ko‘rsatishi kerak. Shuning uchun tasvirning hammasiga ishlov berishga, uni natura bilan yopishtirib, solishtirib qarash kerak. Bunda chiziqlar albatta narsaning shakliga monand yo‘nalishda bo‘lib, uning shaklidagi noaniq yerlarini yana ishlash kerak bo‘ladi. Unda ton jihatdan kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa darhol bartaraf etish lozim. Birinchi plandagi narsa uzoqroqda tuyulsa uni yaqinlashtirish aksincha, orqa plandagi narsa juda yaqqol ko‘rinib qolgan bo‘lsa, uni bir oz xiralashtirish lozim. Xullas, natyurmortning tasviri uning o‘zi kabi yaxlit taasurot qoldira olishi zarurdir.

Tabiiy yorug‘likda yirik munosabatlar bilan shakl xajmini to‘g‘ri ishlashni o‘rganib bo‘lgach, uzoq muddatli seanslarga o‘tish mumkin. Unda esa bosh tasviri puxta o‘rganilgan holda uning rangli va obrazli xarakterini ifodalashga o‘tiladi.



17-rasm. Muravyova Yelena Aleksandrovna-Deraza oldidagi natyurmort. 2013 yil Qog’oz, akvarel


Rangi bir xil, turli tusdagi buyumlardan tuzilgan natyurmort kompozitsiyasini kontrast fonda ishlash.

Tus rangtasvirning ajralmas qismi hisoblanib urang bilan birgalikda tasvirlanadi. Tajribasiz rassomlar o‘zlarining dastlabki ishlari faqat rang bilan ovora bo‘lib qo‘yilmadagi tus yaxlitligini yoddan chiqaradilar, natijada ish sifati buziladi.

Rangtasvirni puxta o‘rganishda ko‘pgina yetuk rassom va pedagoglar (oq va qora bo‘yoqlarda) naturani tusda tasvirlashga katta ahamiyat bergenlar. Bu masalada D.N.Kardovskiy shunday degan: “Tusni yorug‘lik orqali yetkazishdan ko‘ra ranglarda berish murakkabdir. Shuning uchun rang tasvirga o‘tishda, yorug‘likdagi

tusga bo‘lgan ko‘nikmaga ega bo‘lish kerak...”. Demak rangtasvirning boshlang‘ich kursida grizayl texnikasida mashqlar bajarishni tavsiya qilamiz. Tasvir qalamda puxta bajarilgach, har bir narsa va buyumning materialligi, uning hajmi tus munosabatlari ranglar vositasida hal qilishga o‘tiladi. Realistik qalamtasvirning bunday sifatlariga har bir narsalardagi (shula, yorug‘lik, yarim soya, soya va x.k.) soya-yorug‘lik gradatsiyasi va ularning ranglardagi o‘zaro tusli farqlarini to‘g‘ri hal etish orqali erishish mumkin. Tusli farqlar nimani anglatadi Rang jihatidan ba’zi narsalar naturada zich va to‘qroq boshqalari esa ochroq ko‘rinadi. Ayrim narsalarda shaxsiy soya to‘qroq va zichroq “og‘ir” (masalan, chinni ko‘zada, cho‘yan qozonda), boshqalarida esa soyalar ancha ochroq «nozik» (gipsli vaza, qog‘oz rulon va x.k.) ko‘rinadi. Bu tusli farqlarni qalamtasvirda ham teng ravishda mutonasiblikda ifodalash kerak.

Bu chog‘da narsalar orqasidagi fonni ham hisobga olish zarur. Natura qo‘yilmasidagi barcha narsalarni tusga nisbatan fonning och-to‘qligi munosabatlarining to‘g‘ri olinayotganligi kenglikni ko‘rsatishga imkon tug‘diradi. Tus munosabatlarini eng to‘q narsalardan yoki chuqur ichki soyalardan boshlab ko‘rsatilishi to‘g‘riroqdir. Har bir narsalarning tus kuchini bir-biri bilan solishtirish zarur, narsalarning o‘zaro och joylarini, soyani-soyalar bilan, yarim tusni yarim tuslar bilan taqqoslash zarur. qandaydir to‘q idishda shaxsiy soya undan tushuvchi soyaga nisbatan to‘qroqdir. Mevalardagi yorug‘lik eng yorug‘ joyiga qaraganda to‘qroq bo‘lishi mumkin. Tasvirda va naturadagi narsalarni bir-biri bilan doimiy taqqoslash



*18-rasm. Fursova Olya- o’quv natyurmorti.
Qog‘oz, akvarel*

orqali ular orasidagi farqlarni kamayishiga erishish zarur. Eng to‘q narsalar yoki uning soyasi – bu qora baxmalda va ko‘mir rangida emasligini, esda tutish kerak. Qora buyumlar va ularning soyalarini ancha yumshoqroq lekin juda ham to‘q qora tusda ishslash kerak emas. Hattoki qora baxmalni tasvirlashda ham qalam yoki qora bo‘yoqni bor kuchidan foydalanish noto‘g‘ri, aks holda qog‘ozda yoki matoda huddi qora teshik paydo bo‘ladi. Shuningdek, naturadagi juda oq narsalarni toza oq bo‘yoqlar bilan tasvirlashning iloji yo‘q chunki, u oq bo‘yoqqa nisbatan ancha to‘qroq bo‘ladi.

Ishning birinchi bosqichida – asosiy munosabatlarni aniqlash kerak. Naturadagi asosiy obektlarning yorug‘-soya munosabatlari: fonning och-to‘qligi, narsalarning sirtidagi och-to‘qligiga va ularning o‘zaro bir-birlariga nisbatan aniqlanadi. Avvalo qo‘yilmadagi narsalarning umumiy tusi bir sidra qoplanadi. Agar umumiy munosabatlarni noto‘g‘ri olsak qalamtasvirning aniqligi, keyingi alohida narsalarning hajmli shakllaridagi yorug‘-soya ham, tasvir aniqligi va haqqoniyligini, materiallik va kenglikni ko‘rsata olmaymiz. Ishni soyadan yorug‘likka qarab yuritish kerak, buning ustiga soya joylariga imkon boricha bo‘yoq qatlamini yupqa va nozik berish, yorug‘likni esa ularga nisbatan quyuq bo‘yoqda ancha to‘qroq qatlamli, va aniq surtmalar bilan qoplash zarur.

Grizayl texnikasida soya, yarimsoya, reflekslarni birdaniga kerakli tusda mos bo‘yoqlar bilan qoplash, (iloji boricha bo‘yoqni qayta-qayta berishni takrorlamasdan) bo‘yoq surtmalarini shakl yo‘nalishi bo‘yicha harakatlantirish kerak. Masalan, silindrsimon shaklga ega bo‘lgan narsaga turli tasodifiy yo‘nalishda surtmalar berilsa, ushbu shaklning aylanaligini ko‘rsatish mushkuldir. Naturadan tasvirlayotib narsalarning munosabatlarini nafaqat tus kuchi bo‘yicha balki uning aniqligini ham, narsalar sirtlarining kontrastli chegaralarini ham kuzatishimiz kerak. har bir narsaning ko‘rinib turgan tashqi ko‘rinishi o‘zining ko‘lamida turlicha: qandaydir narsaning yoritilgan chap tomoni yorug‘lik kuchi bo‘yicha fonga nisbatan yaqinroq bo‘lishi mumkin. Shu narsaning o‘ng tomonidagi chegarasi tus jihatidan fon bilan deyarli qo‘shilib, uning Yuqori qirrasi fonda yaqqol ajralib turadi. Asosiy narsalar va ularning sirtlari orasidagi tus munosabatlarini to‘g‘ri ko‘rsatishdan tashqari, har bir narsaning hajmli shaklini soya-yorug‘ bilan ham puxta ishslash kerak. Tekisliklar bilan chegaralangan buyumlarning yorug‘-soyalarini bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘tish izchilligining xususiyati shundan iboratki,- har bir tekislik boshqa tekislik tusidan farqlanib o‘zining malum tusiga ega bo‘ladi. Bunday narsalarning hajmi - hamma tomonlari tekislik bilan chegaralangan kenglikdir. Yorug‘likka qaratilgan tekisliklardagi yoyilib tushayotgan tekisliklarga nisbatan, yorqinlik ravshan yoritilgan bo‘ladi. Shakllarni turlicha tusli tekisliklar bilan yasashning bunday tartibi katta qismlarga ham kichik shakllarga ham tegishlidir.

Tusli tasvirlash mobaynida tasvirlovchidan narsalarning uzoqligini hisobga olish zarur bo‘ladi. Agarda bir qatorga bir xil narsalarni turli masofada joylashtirsak, yaqindagi narsalarning mayda bo‘laklari va materiallik fakturasi ancha aniqroq ko‘rinadi. Uzoqlashgan sari bu aniqligi yo‘qolib xiralasha boradi. Uzoqdagi obektlar siluetli va tekis (yassi) bo‘lib ko‘rinadi. Old ko‘rinishdagi buyumlarning soya-yorug‘ qismlari olisdagidan ravshan va aniqroq o‘qiladi.

Rassom ustaxonasi interyerini tasvirlash

Ma'lumki tasviriy san'atni o'rgatish tajribasi, ayniqsa, kompozitsiya masalalarini hal etish jarayonida interer, fazo, atrof-muhit va vaqt faktorlarini to'g'ri ochib berish uning ifodaviyligini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Ma'lumki, interyer ko'pchilik kompozitsiyalarning muhim qismi sifatida foydalilaniladi. U ayniqsa, natyurmortlarni ishlashda ko'p qo'llanadi. Keng qamrovli mazmun mohiyatga ega bo'lgan natyurmort kompozitsiya asarlarida va shuningdek o'quv mashqlarida ham xona ichi tasvirlanadi. Unda esa albatta kompozitsyaning barcha qonun-qoidalari va amallariga rioya qilinishi taqozo etadi. Bunda uning chiziqli perspektiva qurilishi, fazoviy holatlari, atrof-muhit ko'rinishi realistik tarzda, metodik izchillikdan bilimdonlik bilan aks ettirilishi lozim. Agar kompozitsyaning biror- bir unsuri e'tiborsiz qoldirilsa, unda umum



19-rasm.


tasviriy jihatlari bo'sh, ta'sirsiz chiqib qolishi mumkin. Masalan, natyurmort kompozitsiyalaridan atrof-muhit, fazo holatlari muhim hisoblanib, ularni ifodali tasvirlash orqali mavzuni belgilovchi zamonaviylik hamda vaqtini, asar ishlangan paytdagi fasl xususiyatlariga doir aniq, tiniq ko'rsatib berishi mumkin. Mazmuni chuqur va qiziqarli chiqishi natyurmort qo'yilib tasviri etilayotgan xona ichi ya'ni intererning qanday yoritilganligi, undagi buyumlarning qanday joylashganligiga ham bog'liqdir. Chunki ular orqali kompozitsiya g'oyasini yanada teranroq ochib berish imkoniyati tug'iladi. O'sha har biri o'zicha muhim bo'lgan narsalar orqali vaqt me'zonlarini, davr xususiyatlarini ham to'liq badiiy tarzda ifodalash mumkin. Odam qiyofasini interyerda aks ettiradigan kompozitsiyalarda ham



20-rasm.

vaqt, fazoviy holatlar, atrof-muhit tasviri orqali ko'rsatib beriladi. Chunki ular kompozitsiyadagi rangdorlik tus-rang munosabatlarini, ta'sirchanlik va mazmunni belgilovchi komponentlar sifatida yo'zaga chiqadi. Ma'lumki, o'quv mashqlaridan, kompozitsiya chizish jarayonlarida bu muhim omillar aslo unutilmasligi lozim.

Chunki ular kompozitsiyaning o'lchamini, tomonlarining rang va to'q-ochlik, demakki, tus munosabatlarini, yaxlitlik va muvozanatlarini belgilab, muallif o'z oldiga qo'ygan g'oya tasvirini yo'zaga chiqarishda yordam beradi. Mazmunning tushunarli, lo'nda, qiziqarli chiqishida xizmat qiladi.



21-rasm.

*Germana Demina-Interyer.
Qog'oz, Akvarel*

Xona ichini kompozitsiyaning bir komponenti sifatida tasvirlash ham oson emas. U ko‘pincha tasvir etilayotgan voqelikning yordamchi bir foni vazifasini o‘tasada, unga muhim bo‘lak sifatida yondoshilishi kerak. Masalan, interyerni chiziqli perspektiva holati to‘g‘ri topilmas ekan kompozitsiyaning fazoviy o‘lchamlari va ifodaviyligining haqqoniy aks etishi mumkin bo‘lmay qoladi. O‘z navbatida atrof-muhit ham kompozitsiyaning umumiyligi oyaviy mazmunini belgilovchi unsurlardan biri hisoblanadi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan ma’lumotlardan shu narsa ayon bo‘ladiki, demak, interyer, fazo, atrof-muhit va vaqt kompozitsiyasining mazmunli chiqishida muhim rol o‘ynovchi, o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq holda tasvirlanadigan zarur kompozitsiyaning faktorlari ekan. Shu sababdan ularning tasviriga katta e’tibor bilan yondashish zarur. Intererda aks ettiriladigan har turli kompozitsiyalarni bajarishdan avval albatta ko‘plab yordamchi eskizlar, qoralama lavha suratlar ishlanishi kerak. Ulardan foydalangan holda kompozitsiyada xonaning qanday qismi tasvir etilishi topiladi. Perspektiva ko‘rinishining qurilishi tahlil etib belgilab olinadi. Bunda albatta rang, fazoviylik holatlari tus, soya-yorug‘lik munosabatlari orqali ifodalananadi.

Dekorativ usulda har xil buyumlardan tuzilgan natyurmort rangtasvirini ishlash.

Xayotining so‘ngi yilida Van Gog 850 dan ortiq rangtasvir asarlari va 1000 dan ortiq qoralama va qalamchizgilar ishladi. Boshqa rassomlar singari Van Gog ham tinimsiz o‘z ustida ishladi. Rangtasvir ishlar moqchi bo‘lgan har bir kishi Van Gogga o‘xshab progressiv yutuqlar yo‘lidagi mashaqqatli mehnat samarasiz bo‘lmasligini o‘ziga shior qilib olmog‘i lozim. Akvarel texnikasini o‘rganish yanada qiyinroq hisoblanadi. Buning uchun ijodiy jarayonda zarur texnika, ko‘nikma va malaka, sabr-toqat, juda ko‘plab qoralama va ranglavhalar bajarish kerak bo‘ladi.

Ayniqsa dekorativ ranglavhalarini bajarish mashg‘ulotlarida bunday tezkor ranglavhalar ishslash juda foydali. Insoniyat qadimdan hayvonot olami va tabiat bilan chambarchas bog‘liq holda hayot kechirib keladi. Shuning uchun musavvirlar azaldan tabiat go‘zalliklarini, olamini jonli bo‘yoqlarda tasvirlashga harakat qilganlar. Ana shunday rassomlarni yangilikka intiluvchan navator rassomlar deb ataydilar.

Rassom dunyosi beqiyos, turli-tumandir. Tabiatan plastik shakl va chizgilar, holatlar va ranglar rassomlarga ilhom baxsh etadi va ularning shu janrda turli asarlar yaratishlariga turtki bo‘ladi.

Dekorativ asarni tasvirlash borasida har bir talabaning kerakli bilim va malakaga ega bo‘lishi talab etiladi.

Dekorativ asar yaratishda ranglar shakllar, chiziqlar va dog‘larning o‘yinini o‘rganishda, avvalo, tulumiga qarab turlitomondant asvirlashni mashq qilish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ularni sinchiklab kuzatish lozim. Keyin tulumlarini tez chizishni mashq qilish orqali rasmni tasvirlashga o‘tiladi. Bu talabadan buyuk rassomlar ijodini kuzatish va taffakur qilish, o‘z ustida ishslash kerakligini ildiradi.

“Dekorativ natyurmort - bu hech qanday hajm va realizmga ega bo‘lmagan tekis natyurmort tasviridir”. Ma’lum bo‘lishicha, dekorativ natyurmort shunday

natyurmort bo‘lib, unda hech narsa yo‘q! Ammo, aslida, dekorativ natyurmort - bu tabiatdagi eng qiziqarli narsalarning uyg‘unligi, bu ko‘proq ekspressivlik va emotsiyonallikka erishish uchun ehtiyyotkorlik bilan tanlashdir. Lotin tilidan tarjima qilingan “dekor” so‘zi “bezatish” (“Men bezayapman”) degan ma’noni anglatadi. Demak, dekorativ san’at insonni o‘rab turgan narsalarni chiroyl qiladi. Agar biz obyektlarni hajmdan mahrum qilsak, biz buni biron bir sababga ko‘ra qilamiz, masalan, bezak yoki rangni yaxshiroq ochish uchun yoki natyurmortning ekspressivligini oshiradigan boshqa maqsadlar uchun.

Dekorativ natyurmort yaratish - bu eng xarakterli xususiyatlarni bir vaqtning o‘zida aniqlash, shuningdek, tasvirni dekorativ elementlar bilan faol to‘ldirish bilan obyektlarning shaklini stilizatsiya qilish va umumlashtirish jarayoni.

Stilizatsiya

Dekorativ san’atda stilizatsiya butunni ritmik tashkil etish usuli bo‘lib, buning natijasida tasvir ortib borayotgan dekorativlik belgilariga ega bo‘ladi va o‘ziga xos naqsh motivi sifatida qabul qilinadi. Dekorativ natyurmortni yaratishda uslubni katta munosabatlar (shakllar, dog‘lar) bilan boshlash va asta-sekin kichikroq tafsilotlarni (chiziqlar, to‘qimalar va boshqalar) ishlashga o‘tish yaxshiroqdir.

Stilizatsiya bosqichlari:

1-bosqich. Siluet o‘zgarishi

2-bosqich. Siluet va fanni dekorativ detallar (segmentlar) bilan to‘ldirish

3-bosqich. Rang, to‘qimalar, bezaklar



1-variant



2-variant



3-variant



4-variant



5-variant



6-variant

1-bosqich. Siluet o‘zgarishi-Afsuski, ba’zida bu birinchi qadam e’tibordan chetda qoladi. Natijada natyurmort predmetlarining shakli tabiatdan oddiygina ko‘chirilgan va yagona uslubga tushirilmagan go‘zal bezak ishlarini ko‘ramiz. U ham shunday ishlashi mumkin. Biroq, agar siz shaklni shakllantirish va stilizatsiya qilish haqida o‘ylasangiz, dekorativ natyurmort yanada uyg‘un va qiziqarli ko‘rinadi. Ha, muallif bunday ishni ancha ishtiyoq bilan bajaradi, chunki shakllarni o‘zgartirish bilan rassomning tasavvuri faol ravishda o‘rgatiladi. Ijodkor odamlar uchun bu juda qiziqarli va hayajonli jarayon.

Xo‘sh, dizayn va dekorativ kompozitsiyadagi transformatsiya nima? Transformatsiya - obyektning xarakteri va tasvirini saqlab qolgan holda shaklning o‘zgarishi. Uning shakli o‘zgaradi, lekin tasvirning asosiy motivi (ko‘rinishi) saqlanib qolinadi. Dizayn kompozitsiyasiga kelsak, bu erda obyektlar geometrik shakllarning xususiyatlarini oladi, ularning shakli soddalashtiriladi, keraksiz tafsilotlarni yo‘qotadi va aylana, uchburchak va to‘rtburchakdan (obyektning tabiatiga qarab) olingan siluetlarga qisqartiriladi.

Misol tariqasida choynakdan foydalanib, dekorativ va dizayn san’atining o‘zgarishini ko‘rib chiqing.

1-variant - bu obyektning odatdagagi real eskizi.


2-variant choynak generatrix asosida o‘zgartirilganda qanday ko‘rinishini ko‘rsatadi. Ishlab chiqaruvchi chiziq, aslida, kontur chizig‘i yoki konstruktiv chiziqdir. Choynakimizning shakli aylanaga asoslangan. Shuning uchun eskiz aylana va undan olingan turli shakllar asosida qurilgan.

3-variantda shaklni o‘zgartirish simmetriya o‘qiga nisbatan ikki yarmining siljishini o‘z ichiga oladi.

4-variant bu erda ikkita motif birlashtirilgan, to‘g‘ri chiziq va aylana, lekin ularidan biri ustunlik qiladi.

5-variant asosan generatrixga asoslangan. Bu yerda choynakning bo‘yni cho‘zilib, “qiyshiq voronka”ga aylanadi.

6-variant ham aylana shakliga asoslangan. Siluet ikki qismga bo‘linadi, ular bir-biridan tekis o‘q bilan emas, balki egri chiziq bilan ajratiladi. Shuningdek, u doira shakliga asoslanadi.



7-variant

7-raqamli eskiz dekorativ natyurmortning yakuniy versiyasining asosini tashkil qiladi. Endi bu qora va oqning dastlabki eskizi, ammo kelajakda u to‘liq holatga keltiriladi.

Yuqoridagi oltita eskiz qora va oq rangda maxsus ishlangan bo‘lib, unda tafsilotlar yo‘q, chunki bu dekorativ natyurmortustida ishlashning birinchi bosqichidir. Ushbu bosqichda rassom

shaklni rivojlantiradi, shuning uchun hech narsa siluetdan chalg‘itmasligi kerak. Ikkinchis bosqichda dekorativ siluet yechimi yaratiladi. Ya’ni, obyektning siluetini “to‘ldiradigan” chizma yaratiladi.

2-bosqich. Siluet va fonni dekorativ detallar (segmentlar) bilan to‘ldirish Taqdim etilgan eskizlarda shaklni kesish modellashtirishdan foydalanilmaydi, obyektlar tekis, bitta siluet bilan yechiladi (garchi yorug‘lik va soya dekorativ natyurmortda ishlatalishi mumkin, lekin shartli va stilize qilingan).

Bu narsalarning shakli ham, dekorativ mazmuni ham oddiy geometrik shakllarga asoslanadi: doira, to‘rtburchak, uchburchak. Bu erda tasvirni yaratish prinsipi ko‘p jihatdan Suprematizm tamoyillariga mos keladi. Ushbu elementlar biz ishning birinchi bosqichida o‘zgartirgan dekorativ natyurmort siluetlarining ichki makonini to‘ldiradi.

Choynak siluetini dekorativ to‘ldirish variantlari



1-variant

2-variant

3-variant



4-variant

5-variant

6-variant

Birinchi variantda choynakning silueti qo‘shimcha ravishda bir nechta qismlarga bo‘linadi, ularning har biri o‘z ohangiga ega. Bularning barchasi aylananing bir xil

bo‘laklari, bu erda ular gulbarglar yoki egri chiziqlarga o‘xshaydi.

Choynakning dekorativ yechimining ikkinchi versiyasi bir vaqtning o‘zida ikkita motifni birlashtiradi. Bu doira va uchburchakning naqshidir. Ammo birinchisi ustunlik qiladi. Siluet nafaqat simmetriya o‘qi bo‘ylab, balki hosil qiluvchi chiziq (ya’ni, obyektning konturini tashkil etuvchi chiziq) bo‘ylab ham qismlarga bo‘linadi. Choynakning asosi, bo‘yni va dastasi turli rangdagi chiziqlar bilan bezatilgan. Barcha tafsilotlar ularni qo‘llashning turli xil variantlarini birlashtirib, dastlab olingan motivlarga “sodiqlik” bo‘lib qoladi. Bu ishning yaxlitligining kalitidir.

Uchinchi variant yanada murakkab ko‘rinadi. Biroq, u doira va uchburchak motiviga ham asoslangan. Siluet aylanayotgan chiziqlar bilan to‘ldirilgan.

To‘rtinchi eskizdagi choynak bo‘yinining egri harakati harakat tuyg‘usini yaratadi. Choynak raqsga tushayotganga o‘xshaydi. Choynakning barcha elementlari bir xil doira va uchburchak raqamlaridan olingan, faqat yangi usulda qo‘llaniladi. Katta qoliplar kichikroq bo‘laklar bilan to‘ldiriladi.


Beshinchi eskiz, avvalgi kabi, bo‘laklarga bo‘lingan choynak silueti tasvirlangan. Ammo, bir xil bezak prinsipiga qaramay, bu variant butunlay boshqacha tasvirni tortadi. Bu bir xil yechimlar qanchalik xilmashil bo‘lishi mumkinligini, rassomning tasavvur doirasi qanchalik cheksiz ekanligini isbotlaydi.

Oltinchi eskizda choynakni ko‘rishingiz mumkin, chunki u aslida dekorativ natyurmortning yakuniy

versiyasida paydo bo‘ladi. Bu siluet ichidagi elementlarning nosimmetrik joylashuvi. Keyingi, uchinchi bosqichda bu variant rangga aylanadi va to‘qimalar va bezaklar bilan to‘ldiriladi. Nihoyat endi, siz natyurmortda qanday fon yaratishni ko‘rib chiqishingiz mumkin.

Qanday qilib dekorativ natyurmort fonini yaratish mumkin?

Dekorativ ish tabiatga asoslangan bo‘lsa ham, haqiqiy rasm emas. Shuning uchun, agar bu yerda hajm va bo‘sh joy paydo bo‘lsa, u holda shartli ravishda hal qilinishi kerak. Xuddi shu narsa dekorativ natyurmortning foniga ham tegishli. Bu erda haqiqiy dunyoning biron bir obyektini tasvirlashning hojati yo‘q: stol, pardalar, deraza, v.h. Agar biz ularni shunga qaramay, shartli ravishda, o‘zgartiradigan va umumiy uslubga olib keladigan qilib chizamiz. Dekorativ natyurmortda fon mavhum figuralardan



22-rasm.

iborat bo‘lishi mumkin, ularning shakli asosiy mavzular shakliga asoslanadi. Ya’ni, agar choynak yumaloq bo‘lsa, u holda aylanadan fon shakllari hosil bo‘ladi. Bular egri chiziqlar, ovallarning bo‘laklari, doiralar va boshqalar.

Bundan tashqari, chiziqlarning, geometrik shakl uyg‘otadigan tuyg‘u. Masalan, qirrali uchburchakning chaqqonligi, aylanayotgan jingalakning nafisligi, aylananing sokinligi, to‘rtburchakning tiniqliglarini hisobga olish kerak.



23-rasm. Natyurmortning yakuniy rang-teksturaviy tadqiqi

Shunday qilib, bizning dekorativ natyurmortimiz deyarli tayyor. Biz fanni tashkil qildik, obyektlarning siluetlarini o‘zgartirdik va ularning dekorativ yechimini topdik. Endi rang va to‘qimalarni “yoqish” vaqtি keladi. Rasmda siz asarning qanchalik o‘zgarganligini ko‘rishingiz mumkin, garchi u hali ham bir xil natyurmort.

Rang sxemasi qarama-qarshi rang kombinatsiyalariga asoslangan: binafsha-qizil va sariq, shuningdek, ko‘k-kulrang va oltin sariq. Bu gullardan tashqari, albatta, natyurmortda boshqa ko‘plab gullar mavjud. Lekin yuqoridagi ranglar rangning asosini tashkil qiladi. Siluetlarning ichki bo‘shlig‘i bir joyda bir xilda bo‘yalgan va qayerdadir toshga taqlid qiluvchi teksturalar, donli sirt va boshqalar bilan to‘ldirilgan.

Butun natyurmortning eskiziga qo‘sishimcha ravishda, bizda choynakning individual siluetlari uchun dekorativ yechim variantlari ham mavjud.



24-rasm. Choynak siluetidagi teksturalar va rang

Ushbu ish oqimi taqdimoti soddalashtirilgan va sxematik. Ushbu soddalashtirish dekorativ natyurmort yaratish tamoyillarini osonroq o‘zlashtirish uchun qilingan. Darhaqiqat, dekorativ kompozitsiyada stilizatsiya usullari juda ko‘p. Ushbu tamoyillarni tushunish uchun shakllarni o‘zgartirishga asoslangan badiiy asarlarni o‘rganish kerak.

Misol tariqasida, yuqoridagi usullarning qanday qo'llanilishi va boyitilganligi, shuningdek, yangilari qo'llanilishini kuzatish mumkin bo'lgan bir nechta asarlarni keltirmoqchiman.

1-bosqich - siluetlarni o'zgartirish


Birinchi bosqichning 2-variantida choynak taqdim etilgan bo'lib, uning o'zgarishi deb ataladigan narsadan foydalanishga asoslangan. "generator liniyasi". Ammo bu erda biz bir-birining ustiga chiqish texnikasini ham ko'ramiz - qisman tasodif yoki bir shaklning boshqasiga qo'shilishi. Bundan tashqari, shakllar bir-biriga yopishgan joyda ularning rangi yoki ohangi o'zgaradi. Mana, tugallangan natyurmortda qanday ko'rinishi mumkin. Ushbu uslub yangi tekisliklarni shakllantirish orqali kompozitsiyani boyitadi.

Birinchi bosqichning 3-variantida shaklni o'zgartirish simmetriya o'qiga nisbatan ikkita yarmini kesish va siljedishni o'z ichiga oladi. Ushbu texnikani yanada kengroq va xilma-xil qo'llash mumkin. Obyektni nafaqat simmetriya o'qi bo'yab, balki obyektning chekkasi bo'yab ham kesishingiz mumkin, o'qni o'ngga yoki chapga siljedish orqali siz uni kesib, yoki bo'yab harakatlantirasiz, segmentlarni kattalashtirasiz yoki kamaytirasiz. Faqatgina ushbu texnikadan foydalanishga asoslanib, quyidagi rasmlarda ko'rib turganimizdek, butun dekorativ kompozitsiyani yaratish mumkin. Bunday usullardan Georges Braque va Pablo Picasso o'zlarining kubistik kompozitsiyalarida foydalanganlar.¹³

13 A.A. Deyneki, Paxomova S.A., OBPOU HJK. <https://infourok.ru/leksiya-na-temu-dekorativnyj-natyurmort-5675012.html>



25-rasm. Grafik va rangli kompozitsiyalarda bir-birining ustiga chiqishi



26-rasm.
Xuan Gris “Butilkalar va pichoq

27-rasm.
Xuan Gris “Krujka pivo va o‘yin kartalari”

Sodda buyumlardan tuzilgan natyurmortni turli grafik materiallardan foydalanib ishlash (applikatsiya, mozaika v.k.).

Natyurmort san'ati inson maishiy hayotining zarur buyumlari dunyosini aks ettiradi. Natyurmort tuzish – ijodiy ishdир. Unda musavvirning didi va layoqati, kompozisiyani fikrlay olish madaniyati namoyon bo‘ladi. Tasodifan terib qo‘yilgan narsalarni natyurmort deb bo‘lmaydi. Natyurmort tuzish maqsadiga qarab o‘quv va ijodiy bo‘lishi mumkin. O‘quv natyurmortlari ijodiy natyurmortdan, albatta, farq qiladi. O‘quv natyurmorti ma’lum dastur talabini o‘rganish uchun bajariladi. Rangtasvir asari buyumlarning barcha xususiyatlari, shakli va rang, qattiq-yumshoqligi, sirtining yaltiroq yoki xiraligiga qarab tasvirlanadi. Haqqoniy tasvirlangan natyurmort asarlaridan mevaning mazasi, gullarning hidi kelib turadi. Bunga erishish uchun rangshunoslik nazariyasini, bo‘yoqlarning xususiyatlarini yahshi bilmoq kerak. Tasvir va natura o‘rtasida nisbat uyg‘unliklarini to‘la ifodalay olish talab etiladi.

O‘quv qo‘yilmalardagi fon (zamin) muhim ahamiyatga ega. U turli rang va och to‘qligi bo‘yicha, barobar kontrast kuchi bilan narsalarni idrok etishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Narsalarning yarim-soya va soyali tomonlari och fonda sezilarli ko‘rinib turadi. Qoramtil fonda narsalar o‘zining yorug‘lik sifatlarini ko‘proq namoyish etadi. Foning tusi och va to‘q narsalar orasida o‘rtacha bo‘lishi, rang jihatdan silliq va ko‘zga yaqqol ko‘rinmasligi naturaning muvaffaqiyatli tasvirlanishiga yordam beradi. Masalan, masalan har xil mevalar bilan tuzilgan natyurmortda oq fon tanlanadi, iloji boricha, natyurmortning foni bilan tagligi (stolning gorizontal tekisligi) tabiiy bo‘lishi kerak.

Rangtasvirning asosiy vazifasi shundan iboratki, buyum va narsalarning hajmliligi, materiallik va rangdorlik sifatlarini natura qo‘yilmasidek aniq tasvirlash hamda qo‘yilmani yaxlit tusda yakunlash maqsadga muvofiqdir.

Rangtasvir mukammal qalamtasvirga asoslanadi. Shuning uchun rangtasvir jarayoniga o‘tishdan oldin natyurmortning qalamtasvir kompozitsiyasini sur’at tekisligida tasvirlash xususiyatlariga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Tasvirlovchi narsalar to‘plamiga (natyurmort) ma’lum bir ko‘rish nuqtasidan qaraydi va u ko‘z

qarashiga qat’iy ravishda kuzatish perspektivasi qonuniyatining o‘zaro bog‘liqligi bilan namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, naturadagi narsalar o‘zaro yoritilganligi va bir-biriga bog‘langan bo‘lib, ular oralig‘ida reflekslar, yarim soyalar, soyalar va yorug‘liklar taqsimoti ma’lum bir tartibda bo‘ladi. Mabodo ko‘rish nuqtasi o‘zgartirilsa naturaning o‘zaro joylashuvi va yoritilganligi yangi ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Ko‘rish nuqtasi yorug‘likka qarama-qarshi bo‘lganda tasvirni siluet tarzida ko‘rish mumkin. Natyurmortni tasvirlash jarayonida to‘plamdagি barcha narsalar, ularning o‘zaro joylashuvi, soya-yorug‘ va tus munosabatlarini obrazli ko‘rinishiga bo‘ysundiriladi va idrok qilinadi. Natyurmort kompozitsiyasini shunday tuzish kerakki, uni qaysi nuqtadan kuzatganda ham u yaxlit bir butun ko‘rinishiga erishmoq zarur. Bu ishning muvaffaqiyatli chiqishi pedagogning shaxsiy badiiy didi va tajribasiga bog‘liqdir. Naturaga nisbatan qiziqarli ko‘rish nuqtasini tanlab olgach, qog‘oz varog‘i qanday o‘lchamda bo‘lishligini aniqlash zarur. Qog‘oz varog‘ida ifodalanadigan natyurmort qo‘yilmasini naturadan to‘g‘ri aniqlab tasvirlay olish kerak.

Natyurmort kompozitsiyasini qurilishida dastlab qog‘oz yuzasida tasvirlanayotgan narsalarni puxta joylashuvi, qog‘oz o‘lchamiga nisbatan tasvirning katta-kichikligini aniqlashdan iborat. Har bir natura qo‘yilmasi muayyan o‘lchamdagи qog‘ozni talab qiladi.

Tasvirlanayotgan narsalar ma’lum o‘lcham tekisligida “tiqilinch” yoxud juda ham kichik joylashib qolmasligi zarur. Haddan tashqari kichik joylashgan tasvirlar qog‘oz tekisligida aniq ko‘rinmaydi.

Tasvirda asosiy e’tiborni o‘ziga jalb etuvchi buyum — kompozitsiya markazini, qolganlari esa unga tobe bo‘lib hizmat qiladi.

Tasvirda tomoshabinning nazari ana shu markazga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. O‘lchamni aniqlab olgach, asosiy ishni boshlashdan oldin kichik o‘lchamdagи qog‘oz bo‘lagida bo‘lajak natura qo‘yilmasini xomaki variantlari tayyorlanadi, shundan so‘ng, asosiy ishga o‘tish maqsadga muvofikdir.

Asarni ishlashda tanlangan mavzuga asoslanib kerakli materialni to‘g‘ri tanlash talab etiladi .

Qo‘yilgan naturani geometrik jismlarga taqqoslab buyumlarning bir –biriga nisbatlarni solishtirib chizish kerak.

Albatta, har qaysi bo‘lakning o‘ziga xos tomonlarini hisobga olib, bir–biriga uzviy bog‘lash lozim, aks holda qo‘yilgan naturaning maqsadini ochib berishda xatoliklar yuzaga keladi .

Buyumlarning o‘zigagina tegishli bo‘lgan xarakter shakllariga ahamiyat berish lozim. Qo‘yilgan naturani qog‘ozga to‘g‘ri joylashtirish nisbatlarni to‘g‘ri belgilash kerak. Buyumlarni chizgandan keyin qayta-qayta solishtirish kerak. Ish yorug‘ va soyalarni asta–sekin tasvirlash bilan nihoyasiga yetkaziladi.

Natyurmort qo‘yilmasini tasvirlashda ishni alohida-alohida buyumlardan boshlab so‘ngra boshqalariga o‘tish aslo mumkin emas. Narsalar guruhini qog‘ozga to‘g‘ri joylashtirishda nisbat, oraliq masofalar, fazoviy joylashuvda xatolikka yo‘l qo‘ymaslik muhimdir. Buning uchun narsalar to‘plamini yengil chiziqlar bilan belgilab chiqish zarur. Tasvirlashda narsa va buyumlarning perspektiv qisqarishlarini puxta bajarish o‘ta muhim.

Narsalarning o‘zaro joylashuvi, istagan qirrasini yo‘nalishi naturada osongina aniqlanadi va naturaning yo‘naltiruvchi va vertikal (tik), gorizontal (yotiqlar) chiziqlari yordamida tasvir qog‘ozda yengil quriladi. Uzun qalam yordamida qurilmaning perspektiv burchaklarini, qirra nisbatlarini, stol tekisligida o‘zaro turgan joylarini tekshirish mumkin.

Buning uchun qalamni cho‘zilgan qo‘lda vertikal, gorizontal yoki burchak ostida ushlab qirralarning perspektiv yo‘nalishini tekshirish mumkin.

Umumlashtirish bosqichida naturaga yaxlitligicha qarash, hamma narsani birdaniga ko‘rish ya’ni «tikilib qarash» kerak. Buyumlar guruhining barchasi tarqoq bo‘lib tuyuladi, ammo shu paytda tus munosabatlarini, natura yaxlitligini tezroq tushunish mumkin. Navbatma–navbat naturaga ham, ranglavhaga ham yaxlit qarash kerak, shunda qayerda qanday xatoga yo‘l qo‘yilganligini ilg‘ab olish mumkin. Butunligicha, yaxlitligicha ko‘ra olish qobiliyati, ishni umumiyyidan xususiyga qarab va undan yana umumlashtirishga tomon boriladi. Ish jarayonida yaxlit ko‘rish – rangtasvir ishslash mahoratining asosidir. Faqatgina shu malakaga ega bo‘lgan rassom, naturani obrazli ko‘rinishini to‘g‘ri ifoda etishi, undagi asosiy va har bir bo‘lakning o‘z o‘rnini topishini, ishning yakuniy darajasini hamda kompozitsiyaviy markazga bo‘ysundirishni samarali bajara oladi.

Rang bilan ishslash jarayonida shakllarning xarakteriga aniqlik kiritib borish zarur. Tasvirlash jarayonida ishni boshidan oxirigacha, albatta, metodik ketma-ketlikka rioya qilish muhimdir.

Mozaika (lotin tilidan musivum - Muzeylarga bag‘ishlangan)- bu poydevorga juda ko‘p miqdordagi mayda bo‘laklarni biriktirish orqali turli sirtlarda badiiy tasvirlar yoki bezak naqshlarini yaratish usuli. Mozaika odatda ushbu qadimiy texnikadan

Mozaika ishidan namuna



28-rasm.



29-rasm.

foydalangan holda yaratilgan san'at asarlari deb ataladi. Qadim zamonlardan beri u ko'pgina jahon madaniyatlarining tasviriy, monumental va dekorativ-amaliy san'atida qo'llanilgan.

Mozaika ayni paytda ijrochidan katta sabr-toqat talab qiladigan mashaqqatli ish va hayrat uyg'otadigan o'ziga xos san'atdir. Amaldagi materiallarning xilmashilligiga qaramasdan, mozaik elementlarni yotqizishning faqat ikkita asosiy usuli mavjud: to'g'ridan-to'g'ri va teskari.

To'g'ridan-to'g'ri usul bilan usta mozaik qismlarini to'g'ridan-to'g'ri



30-rasm.


tayyorlangan asosga yopishtiradi. Ushbu yotqizish texnologiyasi uzoq vaqt oldin ixtiro qilingan va ko'p ming yillar davomida deyarli o'zgarmagan. Bu muallifning badiiy mozaik kompozitsiyalarini yaratishda ajralmas hisoblanadi.

Teskari yotqizish usuli faqat yigirmanchi asrda keng tarqaldi. Uning mohiyati shundan iboratki, mozaik elementlar birinchi navbatda old tomoni bilan qog'oz varag'iga yopishtirilgan, so'ngra olingan tuval teskari tomoni bilan poydevorga

biriktirilgan. Ushbu usul ko‘pincha usta quruvchilar tomonidan ta’mirlash vaqtida devorlarni bezash jarayonini iloji boricha tezlashtirish va soddalashtirish uchun qo‘llaniladi.

Mozaik panellar va rasmlar nafaqat bardoshli, balki harorat va namlik o‘zgarishiga ham chidamli bo‘lishi kerak. Shuning uchun, ko‘pincha ustalar mozaikani tayyorlash uchun quyidagi materiallardan foydalanadilar: keramika; mayda; tabiiy tosh; kamenlar; mollyuska qobig‘i; metall.

Natyurmortni tasvirlashda ham oldin natyurmort kompozitsiyasi chizib olinadi. So‘ngra yorug‘-soyasiga



*31-rasm. CHDPU talabasi
Tolipova Marjona,
o’quv natyurmorti*



32-rasm. CHDPU TSMG 1-kurs talabasi Umarov Dinora - o'quv natyurmorti

e'tibor qilgan holda tanlangan materiallar(rangli qog'ozlar)ni kerakli qismlarga yopishtirib chiqiladi. Bunda har bir rassom o'z ijodkorlik qobiliyatini ishga soladi.

Applikatsiya ishlashda ham mozaika rasmini chizishdagi tartibga rioya qilinadi (31-rasm). Ikkala uslubda xam ishlash o'ziga yarasha qiyin. Chunki ranglar va shakllarni yaxlitligini ushlab turish murakkabdir. Rssomlarning ijodini kuzatish to'g'ri chizishga yordam beradi. Bunday uslubda ishlash ham qiziqarli, ham mushkul.

Tez bajariladigan shu bilan birga g'oya mazmunini ochib beruvchi qoralama va ranglavhalar rangtasvirni o'rganish uchun beba ho o'rganish manbai hisoblanadi. Bu kichik eskizlar ba'zan katta asarlar yaratilishi uchun "g'oyaviy yadro" vazifasini o'taydi. Yaxshi rangtasvir kompozitsiyasi bajarish uchun buyumdag'i chiziqlar, shakl, rang, yuza va sirt xususiyatlariga (silliq, g'adir–budur, yaltiroq, yumshoq) diqqatni qaratish lozim¹⁴.

14 Paramon Edisionis, «Osnovo` jivopisi». SA, Barselona, Ispaniya 1992: s 15

Aniq xarakterga ega bo‘lgan bosh namunasi (Appolon, Venera, Gatamelatta.) ishtirokida tuzilgan natyurmort rangtasviri.

Antik bosh rasmi ustida ishlashning butun majmui tasviriy san’atning ustivor tamoyili – umumiylidkan xususiylikka va xususiylikdan yana umumiylikka usuli va uslubiga asoslanadi. Boshqacha aytganda, naturaning butun qismlarini tahlil qilish orqali umumiyl shakl obrazini ifoda etish qoidasiga rioya qilish kerak. Bu tamoyil rasm chizish bo‘yicha chiqarilgan hamma o‘quv dasturlarida o‘z aksini topgan va maxsus badiiy maktab, kasb-hunar kollejlari va oliy o‘quv yurtlarida yetakchi hisoblanadi. U barcha talabalarga (ularning davomli rasm chizish tayyorgarligi darajasidan qat’iy nazar) taklif etiladi va bajarish talab qilinadi. Talabalar uni osonroq egallab olishlari va uning mazmunini yaxshiroq tushunib olishlari uchun tasvir ustida ishlashning murakkab majmui alohida-alohida bosqichlarga bo‘lib o‘rgatiladi. Bundan tashqari, uslubiy izchillikka rioya qilgan holda tasvirlash talabaga har bir bosqichni alohida



33-rasm. Aleksandr Pavlovich. - “Gips boshi natyurmort” (akovarel).

tushunib olishga va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni anglashga imkon yaratadi. Davomli tarzda rasm chizish jarayoni juda murakkab bo‘lib, bunda yetarli ish tajribasiga ega bolmagan talaba ko‘pincha qiynalib qoladi. U eng avvalo, nimalarga e’tibor berish, o‘z imkoniyatlaridan qanday qilib oqilona foydalanish kerakligini bilmaydi va ishni lozim darajada tashkil qila olmaydi. Bunday talaba, odatda, nimani ko‘rsa shundayligicha ko‘chirib qo‘ya qoladi.

Ko‘pchilik talabalar odam boshi rasmini chizar ekanlar, ishda uslubiy ketma-ketlikka rioya qilmaydilar, darhol murakkab vazifalarni bajarishga kirishadilar va tez orada muvaffaqiyatsizlikka uchraydilar.

Talaba naturani kuzatish va tahlil etish hamda rasmni konstruktiv chizish qurish jarayonida aniq tizimga rioya qilishi kerak. Rasm ishlashning uslubiy izchilligidagi barcha nozik taraflarni Antinoyning gipsdan yasalgan haykali boshini chizish misolida ko‘rib chiqamiz. Biz rasm ustida ishlashning uslubiy ketma-ketligini bayon eta borib, bir yo‘la tirik odam boshi shakli qurilishining asosiy qonuniyatları va tasvirlash usullarini (jumladan, ishning texnik usullarini) o‘rgana boramiz.

Birinchi bosqich – kompozitsiyaviy joy lashtirish. Ish qog‘oz yuzasida rasm kompozitsiyasini topib, ifoda etishdan boshlanadi. Tasvirni yuzada qanday joylashtirish qulayroq bo‘lishini, qaysi nuqtadan turib qaralganda shakllarning qurilish xususiyatlari ifodaliroq ko‘rinishini bilish niyatida naturani oldindan har tomonlama o‘rganib, ko‘rib chiqish lozim. Talaba rasm kompozitsiyasini qog‘oz yuzasida har taraflama to‘g‘ri va chiroyli joylashtirishni o‘rganishi kerak. Shuning uchun tasvirlanajak gips bosh eng ifodali ko‘rinadigan nuqtani tanlash unga kompozitsiya masalasini yaxshiroq, talab darajasida hal qilishga yordam beradi. Lekin kompozitsiyani topishda qandaydir alohida bir qoidani mahkam ushlab olishning hojati yo‘q. Masalan, ba’zilar to‘rtdan uch qism burilishda yoki profildagi (yon tomon) bosh shaklini chiza turib, yuz qismi oldida, albatta, katta maydon qoldirish kerak, deb hisoblaydilar. Lekin, hattoki, buyuk rassom – ustalar asarlarida ham bunday qilinmaganini ko‘ramiz.


Ko‘pchilik portretlar qog‘oz yuzasining o‘rtasida jamlanadi. Uyg‘onish davri rassomlari merosida qator portretlar mavjudki, ularda boshning yuz qismi

rasm chetiga juda yaqinlashtirilgan. O‘quv akademik rasmida kompozitsiya o‘quv vazifasini hal qilish bilan birga uni murakkablashtirmasligi kerak. Masalan, talaba old tomondan yoritilgan boshni xolis fonda chizishi kerak, deylik. Yuqorida aytilganidek, boshning yuz qismi oldida katta maydon qoladi. Shaklni tuslashga kirishar ekan, u boshdagi soyalar kompozitsiyani buzganini va tus muvozanati yo‘qolganini ko‘radi. Shuning uchun u rasm chizishdan oldin qator xomaki chizgilar bajarib ko‘rishi zarurki, ularda kompozitsiya masalasi hal etilsin. Talaba eng qulay nuqtani tanlab olishi kerak, ya’ni u duch kelgan joyga o‘tirib olaverishi maqsadga muvofiq emas. Vaholanki, ko‘plab talabalarda ana shunday qusur bor. Bundan tashqari, shogird o‘zi chizayotgan rasm oxir oqibatda qanday ko‘rinishga ega bo‘lishini, xayolan bo‘lsada, yaqqol tasavvur qilishi lozim. Faqat shundan keyingina qalamni qo‘lga olishi va rasmni qog‘oz sathiga dadil joylashtirib, ifodalashni boshlashi mumkin.

Ikkinch bosqich – bosh shaklining xarakterli xususiyatlari, o‘lcham munosabatlarini, ya’ni nisbatlarini va boshning kenglikdagi holatini ochib berish. Bosh shaklining o‘ziga xos xususiyatini ochib berishga kirishishdan oldin talaba haykal-naturani diqqat bilan o‘rganib chiqishi, shakl qurilishining eng muhim xususiyatlarini aniqlab olishi lozim.

Bosh shaklini tasvirlashning dastlabki bosqichlarida yordamchi chiziqlardan foydalanish usullari rasmlarda ko‘rsatilgan. Shuningdek, talabalar uzoq muddatga mo‘ljallangan akademik vazifalarni bajarish davomida antik davrga mansub gips bosh niqoblarini ham qalamchizgi bilan chizishlari muhim.

Bosh rasmini chizishda uning old qismi rassomni ko‘proq jalg qiladi. Ko‘zlar, burun, lablar va quloqlar shaklini diqqat



34-rasm. “Torshonda Gips boshi natyurmort ishslash” (akovarel).

bilan ishslash talab etiladi. Lekin bu shakllarni detallashtirish, batafsillashtirish jarayoni shakl tuzishning ma'lum qonuniyatlariga bo'ysunishi kerak.

Buyuk rassomlaming ishlarini ko'rib tahlil etish, shuningdek, ulardan ko'plab nusxalar olish ko'zlangan maqsadga erishishda katta ahamiyat kasb etadi.¹⁵

15 X.X.Muratov, Qalamtasvir, O'quv qo'llanma, TOSHKENT IJOD-PRINT 2020., 93-107 betlar

Murakkab bo‘limgan natyurmort kompazitsiyasini moybo‘yoqda ishlash ishlash. (Grizayl)

Moybo‘yoqda ishlash XV asrda boshlangan. Hozirgi zamonda rangtasvirda eng ko‘p ishlatiladigan bo‘yoqlardan biridir. Moybo‘yoqda tasvirlarni ishlash rassom uchun ham, endi o‘rganayotgan talaba uchun ham juda qiziqarli mashg‘ulotdir. Ammo bu mashg‘ulotning jiddiy qiyinchiliklari ham mavjud bo‘lib, u moybo‘yoq rangtasvir texnologiyasi bilan ham bog‘liq. Chunki moybo‘yoq bilan ishlash ma’lum tayyorgarlikni talab etadi. Ularga bo‘yoqlarni tanlash, ish uchun sath (mato)ni tortib tayyorlash, uni qoplama (grunt) bilan yopish, mo‘yqalamlarni tanlash, eritgichlarni tanlab olish kabi zarur tadbirlarni kiritish mumkin. Moybo‘yoqda tasvirlar ishlashni o‘rganish natyurmortlarni chizib mashq qilish orqali o‘zlashtirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.



Moybo‘yoqli natyurmort rangtasvirini ishlash jarayonining ayrim tomonlari akvarel texnikasiga o‘xshash. Chunki bunda ham avval qalamtasvir chizib olinadi. Agar suvbo‘yoqda ishlash uchun tasvir mukammalroq, mayda detallari bilan batafsil chizib olinsa, moybo‘yoqda ishlash uchun esa chizmatasvir umumlashtirilib eng asosiy narsalar aks ettiriladi. Buning sababi moybo‘yoqda ishlash jarayonida batafsillik mo‘yqalamda ishlanishi mumkinligidandir. Moybo‘yoqda biror rangni ochlashtirish uchun unga oq rang kerakli darajada qo‘shiladi. Shunisi ham borki oq rang qo‘shilgach bo‘yoqning erkinligi ma’lum darajada kamayadi. Buni o‘quv mashqlarini bajarish jarayonida albatta hisobga olish joiz. Akvarel texnikasi kabi jihatlardan biri ish jarayonini asosiy uzoq muddatli vazifani boshlashdan avval


ranglavha, chizmalavhalar ishlab olinishidir. Shunda bo‘lajak rangtasvirning asosiy xususiyatlarini tajriba qilib ko‘rib o‘rganish asosiy ishda uni qo‘llash mumkin bo‘ladi.

Moybo‘yoq tasvirlarini ishlash uchun maxsus ashylardan foydalaniladi. Ular romga tortib tayyorlab, qoplama surtib olingan (gruntlangan) mato, moybo‘yoqlarning kerakli xillari, bo‘yoq taxta (politra), mo‘yqalamlarning turlicha kattalikdagi xillari, mastixin va eritgichlardan iboratdir.

Romga tortilgan mato qanday tayyorlanganligi tasvir sifatini belgilaydigan omillardan biridir desak xato bo‘lmaydi. Uning qoplamasi (grunti) ikki xil tarzda tayyorlanishi mumkin. Biri moyli qoplama bo‘lib u quyidagichadir. 5 foizli yelim (jelatin, baliq yoki duradgorlik yelimi) aralashmasi shunga teng hajmdagi bo‘rga qo‘siladi. U bilan mato sathi qoplanadi. Bir marta surtilgandan so‘ng qoplama bo‘yoq qatlami tayyorlab olinadi. U quyidagi tarkibda, ya’ni - maxsus oqartirilgan rangtasvir yog‘i quruq oq bo‘yoq kukunidan qo‘shib tayyorlangan aralashma bo‘ladi. Yog‘ va kukunning nisbati shunday bo‘lish kerakki u tayyor idishga solib chiqariladigan moybo‘yoqdan suyuq bo‘lmisin. Shunda uni bemalol mato sathiga mastixin bilan tekis qilib surtib chiqish mumkin bo‘ladi. 1-2 xaftha quritilgach G‘adir-budir yerlari qumqog‘oz bilan yaxshilab tekislanadi va skipidar aralashtirilgan moyli qoplama yassi, katta mo‘yqalam (fleyts) bilan tekis qilib bo‘yab chiqiladi. Bunday usulda tayyorlanadigan mato 2-3 oy mobaynida quritiladi. U saqlanadigan joy iliq va quruq bo‘lishi shart.

«Yelimli qoplama» deb yuritiladigan qoplamaning ikkinchi xili quyidagicha tayyorlanadi. Suvda 50-60 gr. jelatin eritiladi va unga 15 gr. glitserin qo‘siladi. U matoga 1-2 marta surtiladi. Birinchi marta surtilgani qurigach qumqog‘oz bilan mato usti tekislanib olinadi, so‘ng ikkinchisi surtiladi. Shundan so‘ng elim aralashmasi bo‘r varoq bo‘yoq kukuni bilan teng nisbatlarda 40 S darajali issiqda eritiladi. Agar uning tarkibi quyuq bo‘lib qolgudek bo‘lsa, o‘sha yelim aralashmasidan qo‘siladi. Bunday qoplama 2-3 marta qavatma-qavat qilib surtiladi. Ular oralig‘ida qurishi uchun ma’lum vaqt bo‘lishi shart.

Hozirgi kunga kelib maxsus mato (xolst) tortilgan tayyor romkalar ham mavjud



35-rasm.

bo‘lib (35-rasm), bu maxsus romkalarning qulayligi uni tayyorlashga ketgan vaqt ancha tejaladi, hamda nisbatan sifatli materiallardan tayyorlanmoqda.

Qoplamlar yana ma’lum rang tusida ham tayyorlanishi mumkin. Ular ko‘proq ijodiy ishlarni bajarishda va kompozitsiya yaratish jarayonlarida qo‘l keladi. Moybo‘yoqda o‘quv-mashqlarni bajarishda rang xillaridan ham unumli foydalanish talab etiladi. Vazifalarni ishlaganda juda ko‘p rang xillaridan bilib-bilmay ishlatish yaxshi samara bermaydi. Tabiatda yettita asosiy rang (bo‘yoq) borligi ma’lum. Ular qizil, noranji, sariq, yashil, havo rang, ko‘k, binafsha ranglardir. Bo‘yoq aralashtiriladigan taxtada (politrada) bo‘lishi juda zarur rang xillari esa qizil, sariq, ko‘k bo‘yoqdir. Chunki ular boshqa qolgan asosiy rang-tuslar vositasida xosil bo‘lmaydi. Bularning aralashmasidan qolgan juda ko‘p ranglarni chiqarish, xosil qilish mumkin. Ulardan xatto qora rang tusini ham topish mumkinligi sir emas. Faqat qaysi rangni bir-biriga qancha miqdorda aralashtirishni bilish kifoya.

Buning uchun esa albatta tajriba va o'quv bo'lishi kerak. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki tabiatda absolyut oq va absolyut qora ranglar mavjud emas. Ularning barchasi qandaydir bir rang tovlanishida bo'ladi. Masalan qoraning jigarrangga, ko'kka, yashilga moyil ekanligini ko'rishimiz mumkin. Oq rangning turli nozik tuslarga moyilligi ham tabiiy. Bunday rang va tuslarning hamda ularning to'q-ochliklarini topib tasvirlash uchun moybo'yoqda ishlash texnikasi juda qulaydir. Shu imkoniyatlarning kengligi bilan u boshqa bo'yoq turlaridan ajralib turadi. Moybo'yoq texnikasida rangtasvirlar ishlashda mo'yqalamlarning qanday turlari va o'lchamlardagilarini ishlatish ham muhimdir. Ularni tanlay bilish ko'p foyda keltiradi. Ma'lumki natyurmortlarni, katta ishlarni bajarishda yapaloq va dag'al mo'yqalamlarni qo'llash ish sifatini, ta'sirchanligini ta'minlaydi. Moybo'yoqlarga suyultiruvchi, erituvchi vositalar qo'shib ishlatiladi. Ular moyli, moyi kamaytirilgan bo'lishi mumkin. Moylirog'i bo'yoqni sekin qurishi uchun yaxshi vosita bo'lib, u bilan foydalanilgan paytda rangtasvir sekin quriydi. Shu sababli uzoq muddatda bajariladigan tasvirlarni ishlashda qulaylik yaratadi. Bunday eritgichlarga ba'zan lak ham aralashtirib ishlatilishi mumkin, shunday qilinganda ishning bo'yoq qatlami



36-rasm.

tezroq quriydi va bo‘yoqning moyi matoga shimilib ketishining oldi olinadi.

Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, moybo‘yoq texnikasida rang qoriladigan maxsus taxtacha (politra) ning yuzasida bo‘yoqlarni qanday joylashtirish masalasi ham muhim. Unda bo‘yoqlar issiq-sovuq ranglarga ajratib, shu bilan birga to‘q-ochligiga qarab ajratib joylashtirilishi mumkin. Oq bo‘yoq odatda o‘rtada yoki ranglar qatorining boshlanishida bo‘ladi.



37-rasm.

Agar har safar bir xil joylashtirilsa, rassom shunga o‘rganadi va kerakli bo‘yoqni darrov topib ishlatish imkoniyati qulay bo‘ladi. Moybo‘yoqda tasvirlar ishlashning ko‘p o‘rganilishi kerak bo‘lgan tomonlari bor. Ularning barchasi ko‘p mashq qilish orqali o‘rganib olish imkonini beradi. Tajriba nazariy va amaliy tomondan muntazam mashq qilish natijasida oshadi. Bunda maxsus adabiyotlarni mutoala qilish ham zo‘r vositadir.

Akvarel texnikasidagi bo‘lgani kabi moybo‘yoq texnikasida ham natyurmort ishslashda qalamtasvir

asosiy rol o‘ynaydi. Rangtasvirda chizmani har xil materiallarda chizish mumkin. Masalan; qalam, ko‘mir va cho‘tka bilan moybo‘yoqni razbavitelga aralashtirgan holda chizsh mumkin. Bu vazifani bajarish uchun eng yaxshi ashyo ko‘mirdir, chunki ko‘mir bilan ishlanganda xoxlagancha o‘chirib tuzatish mumkin.

Natyurmort rangtasvirini moybo‘yoqda ishlashda dastlab bitta rangda (grizaylda), qora yoki jigarrangda tasvirlashdan boshlagan ma’qul. Maqsad moybo‘yoqda har xil rangdagi buyumlar shaklini, hajmini tusda ifodalab berishni o‘rganish lozim. Buyumlarning shakli va rangi bir biridan farq qilsa ham ularni bitta rangda tasvirlash ancha qiyinchilik tug‘diradi. Tasvirlash jarayonida yorug‘lik qiymatini, qaysi shakllar eng to‘q, qaysi joyda eng ko‘p yorug‘lik uning qiymati, to‘q



37-rasm. Olga Kabaeva-grizayl natyurmort

predmetlarning yorug‘liklarning bir-biriga bo‘lgan munosabati qaysisida ko‘proq, qaysi birida kamroq yorug‘lik yoritilayotgani va och rangdagi buyumlarning soyalari, shaxsiy va tushuvchi soyalarini ishni boshlashdan oldin yaxshilab o‘rganib chiqish kerak.



38-rasm. Chien Chung Vey-grizayl

Rang bilan ish boshlashda avvalo hamma soya joylarni tiniq rang bilan yozib chiqish kerak, yorug‘ joylari bundan mustasno. Shundan so‘ng natyurmortning orqa foni va yarim soyalar (poluton) ishlanadi, fon, soya va yorug‘liklarning munosabatlari aniqlanadi. Reflekslarni ishslashda ularning yorug‘ligi umumiy tonlardan chiqib ketmasligi kerak.

Ishning umumiy holatida natyurmortning eng yorug‘ tushgan joyini va eng to‘q joyini, soya yorug‘ini ishlab chiqib, mayda bo‘laklarni shu ikkita nuqtaga bo‘ysindirish kerak. Ishning oxirida hamma mayda bo‘lakchalar bir yaxlitlik hosil qilsin. Yaxlitlikni buzmaslik, undan chiqib ketmaslik kerak.¹⁶

Iliq tuslanishga ega bo‘lgan kontrast rangli buyumlardan tuzilgan natyurmortni cheklangan ranglarda ishlash. (moybo‘yoq)

Rangtasvir ishslashda uning qonun-qoidalarini, usul va texnologiyasini o‘rganish muhim ahamiyatga ega vazifalardandir desak xato bo‘lmaydi. Shunday zarur shartlar qatoriga axromatik va xromatik ranglar haqidagi bilimlar ham kirishi tabiiydir.


¹⁶ Orif Muinov, Rangtasvir, Toshkent-2007, 34-37 b.

Ko‘zimiz ko‘ra oladigan tabiatdagi hamma ranglarni shartli ravishda ikkiga: axromatik va xromatik ranglarga bo‘lish mumkin. Oqdan to‘q qoragacha bo‘lgan ranglar axromatik ranglarga (oq, kulrang, qoramtil, qora, to‘q qora) qolganlari esa xromatik (qizil, sariq, ko‘k va hokazo) ranglarga kiradi.

Xromatik ranglar o‘z navbatida, shartli ravishda yana ikkiga, issiq va sovuq ranglarga bo‘linadi. Issiq ranglarga olov, quyosh, qizigan narsalarning rangini eslatuvchi qizil, sariq, zarg‘aldoq ranglar kiradi. Muz, havo, suvlarning rangini eslatuvchi ko‘k, moviy, binafsha ranglar sovuq ranglarga kiradi. Yashil va binafsha ranglar goh issiq, goh sovuq ranglarga kirishi mumkin. Chunki yashil rang sariq va ko‘k ranglarning aralashmasidandir. Binafsha rang esa qizil va ko‘k ranglarning aralashmasidan hosil bo‘ladi. Ko‘rinib turibdiki, bu ranglar issiq va sovuq ranglarning aralashmasidan hosil bo‘lgan. Aralashtirishda issiq rang miqdori sovuq rang miqdoriga nisbatan ko‘proq bo‘lsa, hosil bo‘lgan rang issiq rang qatoriga, sovuq rang miqdori ko‘proq bo‘lsa, sovuq ranglar qatoriga o‘tish mumkin. Xuddi shunday, binafsha rangda qizil rang ko‘proq bo‘lsa issiq, ko‘k rang ko‘proq bo‘lsa,



39-rasm. Qiang Huang-kundalik rasm



40-rasm. *Qiang Huang-natyurmort (moybo'yog*

sovuj ranglar qatoriga kiradi. Demak, o‘quv mashg‘ulotida rangtasvirni ishlashda qo‘yilmadagi narsa va buyumlarning yorug‘-soya nisbatlari, shuningdek, rang nisbatlarini ham ochib aniq ko‘rsatish muhim ahamiyatga ega.

Kompozitsiyadagi to‘qlik, rang, faktura yoki masshtabni o‘zgartirib qarama qarshilik hosil qilish orqali holat yoki harakatni ifodalash mumkin. Juda och jism kuchli soya tushib turgan to‘q jism oldiga joylashtirilsa kontrastlik darajasi oshadi. Rang yoki to‘qlik darajasidan tashqari rangdor yuzada kulrang, sovuq tusli yuzada iliq ranglar berib ham kontrastlikni kuchaytirsa bo‘ladi. Yana bo‘yoq surtmasini har xil qalinlikda qo‘yish, mo‘yqalamni turlicha ishlatish yo‘li bilan ham fakturadagi kontrastlikni yaratish mumkin¹⁷.

Bu faktorlardan o‘z joyida qo‘llash kartina va undagi obrazga nisbatan tomasabinning qiziqishini oshiradi. Rassomning hissiy sezgisi orqali

¹⁷ Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson-Guptill Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015. s 47

kompozitsiyaning asosiy qonun–qoidalariiga amal qilgan holda bu unsurlar va qoidalarni qanday tashkil etishni aniqlashiga yordam beradi. Kompozitsiyadagi bu qoidalarni qo‘llashdagi ikkillanish yangi ijodiy eksperimentlar qilishga xalaqit beradi.

Birinchi bosqich: kompozitsiyani joylashtirib, uning qalamda umumiyo‘ ko‘rinishini chizib olamiz (41-rasm). Mashq uchun romkaga tortilgan mato va iliq bo‘yoqlarni tanladik.



41-rasm.

Ikkinchi bosqich: natyurmortdagi mevalar, idishlar hamda fondagi asosiy tuslarni aniqlab, katta yuzalarga ishlov beriladi (42-rasm). Ulardagi ranglar sekin–asta to‘qlashtirib boriladi. Kartinadagi boshqa bo‘laklarining rangini fon rangi yordamida tayyorlanib borilsa bir–biriga uyg‘unlashgan, iliq tusdagi kompozitsiya hosil bo‘ladi.



42-rasm.

Uchinchi bosqich: kartinaning kompozitsion qurilishi. Mevalarning boy rangi hamda grafin va ryumkalarni keng rang surtmalarida berib boring. Shu’la tushib turgan joylar uchun oq qog’ozda joy tashlab ketishni unutmang. Tezda qarama-qarshi ranglar, yorqin tus va oq dog’lar ko‘rinishlari sizni qo‘shimcha ishlov berish, soya chetlarini yumshatish, yuvish ishlarini bajarishga undaydi (43-rasm).

To‘rtinchi bosqich: umumlashtirish yakunlash ishlari. Mevalar, savatning rangdorligiga ishlov berib ranglarni yaxlitlashtirib boring (44-rasm). Alovida bo‘laklarning qirralari yonidagi jismlardan ajratish uchun to‘qlashtiring, kerakli joyini yumshatib aniqlashtirib boring. Ishni tugatishdan oldin uni ko‘zdan panaroq joyga qo‘ying. Ozroq muddat o‘tgandan so‘ng qaraganingizda undagi kamchiliklarni ko‘ra boshlaysiz va uni to‘g‘rilash mumkin bo‘ladi.



43-rasm.



44-rasm.

Sovuq tuslanishga ega bo‘lgan murakkab natyurmort kompozitsiyasi ishlash

Moybo‘yoqda rangtasvir ishlash juda murakkab hisoblanadi. Har qanday yangi bo‘lgan mashg‘ulotga qo‘l urilar ekan, maqsadga yetish uchun inson har xil ko‘zda tutilmagan qiyinchiliklar oqibatida bu mashg‘ulotni keyingi safarga surish yoki umuman to‘xtatishga harakat qiladi. Moybo‘yoqda ishlashni o‘rganish uchun talabadan texnika, ko‘nikma, ko‘p mehnat va sabr–qanoat bilan tinmay mashqlar qilishni talab qiladi.

Rangda tasvirlashdan avval kompozitsiya markazini aniqlab olish zarur. Buning uchun tasvirning qaysi qismi eng muhimi sanaladi? Tomashabin diqqatini kartinaning qaysi qismiga qaratish zarur? Qiziqarli joy qayerda?



*45-rasm.
Sevastopol
Sovuq ranglardan tashkil
topgan natyurmort*

kabi savollar bilan o‘zingizga murojaat qiling. Ishni boshlashning boshlang‘ich bosqichida bu muammolar yechimini topish kompozitsiyaning asosiy g‘oyaviy markazini aniqlab olishga yordam beradi. Kartinangizning qaysi qismiga ko‘proq e’tibor berilishiga qarab ufq chizig‘ini baland yoki past darajada olish bilan xolstda kompozitsiya joylashishini taqsimlaysiz. Umuman olganda ufq chizig‘i xolstni teng ikkiga bo‘luvchi markazda bo‘lmasligiga harakat qiling, bunda kompozitsiyangiz turg‘un, harakatsiz (tepada ham pastda ham kattaroq, diqqatni jalb qiladigan element mavjud bo‘lmay, kompozitsiyadagi muvozanat yo‘qoladi) holda bo‘lib qoladi¹⁸.

Keyingi amaliy mashg‘ulotimiz Moybo‘yoqda sovuq tuslanishga ega ranglardan tashkil topgan natyurmort ishlash mashqini ko‘rib chiqamiz. Mavzumizda uy-ro‘zg‘or buyumlardan tuzilgan natyurmort tasvirini rangdor fonda bajarish mashqini bajaramiz. Bu mashg‘ulotda biz Moybo‘yoqning cheklanmagan ranglaridan foydalangan holda rangtasvir bajaramiz.

Kompozitsiyaning ma’lum bo‘lagini bir urinishda tugallashni rejalashtirgan bo‘lsangiz ham rangtasvirning boshlang‘ich bosqichlarida kompozitsiyaning yaxlit ko‘rinishini ko‘zdan qochirmaslik juda muhim. Ba’zi bo‘yoq ranglari kompozitsiyaning ko‘plab joylarida bo‘lganda kichik bo‘laklarda emas balki katta yuzalar yaxlitligi va ranglar uyg‘unligini nazorat qilib borish yengillashadi.

Qog‘oz yuzasida kompozisiya aniqlab olingandan so‘ng eng yorug‘ va eng soya joylari aniq chegarasi belgilab chiqiladi. Bu bosqichlarning vazifasi, narsaning eng yorqin joyi, soya, yarim soya, refleks, buyumning tushuvchi soyalari aniq chiziqlar vositasida belgilab olishdan iborat.

Natyurmortda rang munosabatlarini aniqlash. Narsaning asl rang tuslarini toza-yorqin birligi qatlami bo‘yaladi. Yuzada har bir buyum shakli mayda bo‘laklarsiz umumiylar yaxlit xajmi bo‘yab boriladi.

Naturadan rangtasvir ishslash jarayonining o‘z qonuniyatlarini mavjud bo‘lib, bu ishni tartib bilan olib borish talab etiladi. Ketma-ketlik tartibini anglagan xolda bajarilgan ish maxsuli muhim ahamiyatga egadir. Ishni nimadan boshlash, uning

¹⁸ Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting: techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson-Guptill Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015.s-57

orasida qanday talablarga javob berish va qay o'rinda tugallash kerakligini yaxshi bilmoq zarur.

Rangtasvir bajarishni zarur bo'lgan quyidagi talablar maxsulidir:

- 1) naturada mujassam umumiy yorug'-soya, rang-tuslar va mushtarak ranglardan yorug'-soyani, rang-tusli uyg'unliklar mavjud bo'lgan katta bo'laklarni aniqlash;
- 2) yorug'-soyali, rang-tusli uyg'unliklar katta bo'lagida, yorug'-soyalar va rang yo'nalishlari, ayrim narsa sirtiga ranglar Bilan muttasil ishlov berish;
- 3) umumlashtirish, butun tasvirning yaxlitligiga erishish, kompozisiya markazini ajratib ko'rsatish.

Qo'yilgan talablar mohiyatini birma-bir ko'rib chiqamiz.

Rangtasvirning to'laqonli ifoda etilganligini yorug'-soya, rang-tus kontrastlari, naturaning asosiy rang bo'laklariga o'zaro uyg'unliklari bilan belgilanadi. Bu jarayon natyurmortda – fon bilan stol yuzasi, qo'yilgan majmua buyumlari orasida, manzarada esa osmon bilan yer yuzi va daryo suvining satxi, shuningdek oldindagi plan, o'rta plan va oxirgi planlar orasida sodir bo'ladi. Chizgi sirtlarda ham aynan shu talablar bajarilishini yaxshi bilamiz: birinchi galda buyum konstruksiyasining asosiy mutanosibliklarini (proporsiya) ifodalovchi umumiy kata shakl chizib olinadi. Chizayotgan kishi naturani umumiy va yaxlit tasavvur qilar ekan, bu vazifalardan chetlab o'ta olmaydi.

Ranglarni palitrada bir marotaba topib olib uni faqat ochartirib yoki to'qartirib butun narsani tasvirlash mumkin emas, balki narsa-buyum yuzasining har bir qismi uchun maxsus rang tuslarini qidirib topish kerak bo'ladi. Asl ranglar (buyumlarning o'z rangi) yarim soyalarning asosiy yoritgichlar va aks yorug'lar ta'sirida juda kam o'zgarishlari bois, ular ichida ko'zga yaqqol ko'rinib turadi.

Hajmli narsalar va natura majmularining rang-barangligini yanada kengroq anglash uchun shuni yodda tutmoq joizki, yondosh iliq ranglar kontrastlari ta'sirida ko'zga sovuq rang-tuslar ko'rinadi. Bir rang qo'shimcha ikkinchi rangni ifodalab turadi. Buning natijasida naturada mavjud sovuq ranglarga doimo iliq ranglar hamroh bo'lib yuradi. Agar jism sirtida olov rangni ko'rayotgan bo'lsak, uning



46-rasm. Esya Rubanik- Natyurmort

yonida, albatta havorangni ham uchratamiz.

Iliq va sovuq rang-tuslar uyg‘unliklarida bajarilgan tasvir har bir jismning jarangdorligini oshirib, naturaning tabiiy ko‘rinishini ifodalab beradi.

Tasvirlanayotgan narsalar, buyumlarni bir-biriga o‘xshashligi yoki farqlarini taqqoslab kuzatish ishni bir muncha yengillashtiradi. Masalan, havorangli narsani boshqa bir tus jihatdan boshqacha bo‘lgan havorangli narsaga solishtirib ko‘rsak, bizning sezgi-idrokimiz yanada jiddiylasha boradi va ularning rang tuslarini, farqini aniqroq belgilay olamiz.

Narsa – buyumlarni rang jihatdan taqqoslar ekanmiz, yana bir vaziyatni e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Mavjud rang kontrastlari ta’sirida kulrang tuslar iliq yoki sovuq bo‘lib ko‘rinadi. Kulrang iliq ranglar orasida sovuq,

ranglar orasida iliq tusda namoyon bo‘ladi. Shu bois narsa-buyumlar tuslarini aniqlashda rangsizlarni rangsizlar bilan, iliq ranglarni, iliq ranglar bilan, sovuq ranglarni sovuq ranglar bilan, ochlarni ochlar, to‘qlarni to‘qlar bilan taqqoslash yaxshi samaralar beradi.

O‘ziga xos xarakterli xususiyatlarga ega bo‘lgan inson portreti rangtasviri.

(Akvarel).

Qalamtasvir va rangtasvir mashg‘ulotlaridagi portret ishslashdagi ilk mashg‘ulotlarda qiyofachi bosh va gavda ko‘rinishining fonga nisbatlarini “izlash”ni o‘rganadilar, chunki faqat aniq va jozibador topilgan shaklgina portret ishslashda katta badiiy qiymatga ega.

Inson portretini ishslashni o‘rganishda yuzning o‘ziga xos xarakter ko‘rinishini tushunishga va orqali faqat shu shaxsgagina tegishli bu ko‘rinish orqali uning ichki dunyosi, o‘y kechinmalarini, ruhiy holatini ifodalashga harakat qiling.

O‘tgan mashg‘ulotlar jarayonida portretdagи bosh ko‘rinishini bir xil ranglarda (grizayl) hamda ranglarda ifodalashni etarli darajada o‘rgandingiz. Bu mashg‘ulotimizning maqsadi portret tasvirini yaratishda maksimal jozibadorlikka erishishdan iborat.

Ranglavhalar ishslash. Amalda natura bilan solishtirib portret ishslash

Rangtasvir mashg‘ulotlarining ilk bosqichlarida odam tanasi rangini topishga ko‘proq e’tibor beriladi. Bu rang atrofimizni o‘rab turgan narsalar rangidan ancha farq qiladi. Qon tomirlarda oqayotgan qon tananing o‘zigagina xos och pushti ranglar hosil qiladi, shuning uchun inson yuzi va tanasining rangi pushtirang ko‘rinishda bo‘ladi. Tajribali rassom ranglarning nozik ko‘lamlarini idrok etishda, yuz ko‘rinishi, uning rangi, shakl xususiyati, nisbatlari fakturasi bo‘yicha ikkita aynan o‘xshash chehralarning yo‘qligini qiyinchiliksiz ajrata oladi.

Shuning uchun naturadan portret ishslashni mashq qilar ekansiz tana rangini aniq topishga harakat qiling. Rassom har doim naturada faqat ungagina xos ranglarni ko‘ra olish va uni aniq ifodalashga o‘rganishi kerak. Bu ranglar farqini topa olish va nozik ranglar ko‘lamini mahorat bilan ifodalash uchun mashg‘ulotda birinchi mashqi sifatida uch kishining bosh ko‘rinishini bitta qog‘ozda ifodalashni

tavsiya etamiz. “Nima uchun har xil portretlarni bitta qog‘ozda ishlash kerak?”, “har birini alohida qog‘ozda ishlasa bo‘lmaydimi?” degan savol tug‘ilishi mumkin. Bajarilayotgan portretdagi yuz nisbatlarni solishtirib ko‘rish imkoniyati bo‘lishi uchun bunday usul tavsiya qilinadi.

Keling buni amalda bajarib ko‘ramiz. Akvarelda bir ikki seansda qog‘ozning chap tomoniga yosh qiz portretini ishlaymiz. Qop-qora sochlari silliq va oqish yuz




47-rasm. J.Hunsung -Qizaloq portreti (akovarel)

shaklini, to‘yingan to‘q pushti rang mayin va yumshoq surtmalarda lab shaklini aniq ifodalab turibdi. Yoshlik barq urib turgan yonoqlaridagi pushtirang labdagi qizil rangar bilan uyg‘unlashib ketadi. Yuzdag'i och sariq, pushtiranglar soyada yoqimli yashilsimon qirmizi rang hosil qiladi (47-rasm).

Keyingi portret ishslash seansiga sochlari to‘kilgan o‘rta yashar erkak kishi taklif etiladi (48-rasm). Bunda inson kalla suyagi tuzilishi aniq ko‘rinib turadi. Chuqur ko‘z soqqasi bu inson boshi xarakteri va hajmini ifodalashga yordam beradi. Uni chizishga o‘tishdan oldin, qiz bola portretini ishslashga nisbatan bu portretni ishslashda umuman boshqa ranglar zarur bo‘lishini nazarda tutishingiz kerak.

Qiyofachining pergament rangini eslatadigan oq-sariq-yashilsimon yuziga boqar ekanmiz, bu inson toza havoda kam bo‘lishini qiyinchiliksiz xulosa chiqarish mumkin. Boshning soya qismi ham yashilsimon, lekin qiz yuzidagi yashillikdan umuman farq qiladi, qiz portreti ranglavhasida bu rang jigarrang yashil bo‘lib, uni ko‘lamlariranglarini aralashtirib topilishi mumkin. Bu portretda oldingi rangavhadagi qizning yonog‘i va labidagi o‘sha yoqimli pushti va qizil ranglar yo‘qligini ko‘rishimiz mumkin. Qiyofachining rang xususiyatlarini topish uchun ranglar aralashmasini tayyorlar ekanmiz bu portretda umuman boshqa ranglardan foydalanishimiz kerakligini tushunib etamiz.

Uchinchi ranglavha. Sochlari oqargan paxmoq soqolli qariya portretini ishslash (49-rasm). Portretni



48-rasm. J.Hunsung - portreti (akvarel)

boshlar ekansiz uni oldingi ikki portret bilan solishtirib ko‘rasiz va rangi va fakturasi bo‘yicha ham oldingi portretlarga umuman o‘xshamasligiga iqror bo‘lasiz.

Shunday qilib shunday rangtasvir darslari, har xil qiyofachilarini solishtiib ishslash barcha inson yuzi shakli va nisbatlari, tana fakturasi va rang qurilishi bo‘yicha har xilligiga guvoh bo‘lamiz. Bu tajriba bundan keyingi ishlarda barcha



49-rasm. J.Hunsung - portret (akvarel)

portretlarni inson tanasini bir xil ranglarda ishlash kerak emasligini bilib oldingiz, hamda yoritilish sharoiti va holatlariga qarab har doim sinchiklab o‘rganish va tahlil qilishga majbur qiladi. Chizishning bunday usullari nozik rang ko‘lamlari o‘zgarishini idrok etish, ko‘zni mashq qildirish imkonini beradi, kelgusi mustaqil ijodiy faoliyatda ta’limning boshlang‘ich bosqichlarida chizishni to‘g‘ri o‘rganish, tushunishga yordam beradi

Portret ishlash

Natura qo‘yilmasi old tomonidan yoritilganda bir necha soyalar guruhi hosil qilinganda yuz va bosh ko‘rinishining umumiy rang xususiyatlarini aniq ifodalashi zarur. Yorug‘lik boshga to‘g‘ri tushib turganda orqa fonga qora bo‘lmaseda, lekin fon natura bilan faqat tus jihatdan emas, balki, o‘zaro rang munosabatlarini boyitadigan rang kontrastligini hosil qilishga yordam beruvchi nisbatan to‘q fon talab talab

etiladi.

Boshlovchilar uchun bu rangtasvir mashg‘uloti bir necha marotaba o‘tkaziladi, chunki bunday mashg‘ulotlar etarli darajada murakkab hisoblanadi. Bunda boshlovchi rassom ko‘p martalab qaytadan ishlashga majbur bo‘ladi.

Chizishni o‘rganish, rangtasvirda to‘g‘ri ishslash malakasi va ijodiy mahoratini oshirishni xohlaganlar inson yuzi va boshi portretini chizishning aniq tizimini ishlab chiqishi kerak bo‘ladi. Inson boshi portreti rangtasvirini bajarishni o‘zaro uzviylikda bir-birini to‘ldirib boradigan uch bosqichga bo‘lib ishslashni tavsiya etamiz.

Birinchi bosqich: boshning dastlabki shaklini belgilash va rangli podmalyovka berish.

Ikkinci bosqich: portretning mayda bo‘laklari, uning shakl va rang xususiyatlarini o‘rganish.

Uchinchi bosqich: umumlashtirish va tahlil qilish, portretdagi umumiylrang uyg‘unligi va badiiy jozibadorlikka erishish.

Portretni bunday ishslash bosqichlari rassomga o‘z ishini boshlanishidan tugallanganigacha nisbatan ongli ravishda bajarish imkonini beradi va ko‘plab keraksiz narsalardan, tinimsiz qayta ishslashdan saqlaydi. Bu odatda portretda keraksiz bo‘yoqlar chaplanishiga olib keladi bu esa xiralashib qorayishiga sabab bo‘ladi.

Natura qo‘yilmasi bajarilgandan so‘ng, rassom rangtasvirning birinchi bosqichini boshlashga kirishadi bunda. Bunda avvalo qog‘ozda yaxshilab portret konstruktiv modelini qurib olgandan keyingina bo‘yoqlarda ishslashga o‘tilishini yoddan chiqarmaslik kerak. Bu holat hamma uchun ayondek ko‘rinadi va ko‘pchilik buni eslatib o‘tish shart emas deb o‘yashi mumkin. Lekin rangtasvirda ishslash amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, ko‘pgina holatlarda talabalar bunga rioya qilmasliklarini ko‘rsatadi. Boshlovchi rassomlar konstruktiv qurishga ko‘p vaqtlarini sarflashni xohlamaydilar. Bu esa ba’zida ajoyib ranglarda boshlangan portret, alohida joylari qiziqarli va rangdor ko‘rinishlarda bo‘lib keyinchalik esa shakldagi ko‘plab sezilarli xatolar ko‘zga tashlanib qoladi va ishni achinarli ahvolga solib qo‘yadi.

Keyingi bosqichlarda quruq bo‘yoqlarda alohida qismlardagi xatolarni




50-rasm. J.Hunsung - Akvarelda portret ishlash bosqichlari (I-bosqich)

to‘g‘irlashga harakat qilishadi, bu esa ishning boshlanishidagi o‘zining jozibadorligi va yorqinligini yo‘qotib shakli bo‘yicha maydalanib ketgan ezilib ketgan ishga aylanib qoladi. Buning oqibatida ishlash zerikarli bo‘lib qoladi, model qiziqarli emasdek tuyuladi, o‘z qobiliyatlariga nisbatan shubha tug‘iladi, ishni tezroq

to‘xtatish hissi paydo bo‘ladi.

Bunday xatoliklarsiz to‘g‘ri yo‘ldan borish uchun, avvalo shaklni mukammal qurib unga ishlov bering. Bo‘yoqlar ostidagi dastlabki chizgilarni chizish uchun yumshoq qalamdan foydalanishingiz mumkin. Bu chiziqlar qalamni bosib ishlangan



51-rasm. J.Hunsung - Akvarelda portret ishlash bosqichlari (II-bosqich)

to‘q tuslarda bo‘lishi shart emas. Chiziqlar tusi bo‘yicha och bo‘lishi mumkin, lekin mumkin qadar portretning asosiy tus ko‘lamlari xususiyatlarini hisobga olingan bo‘lishi lozim. Keyin esa uning ustidan nozik chiziqlar qoldirish va ortiqcha to‘qlikni yo‘qotish maqsadida suv bilan yengil yuvib chiqish, yumshoq mo‘yqalamda ishqalab chiqish mumkin.

Shundan keyin bo‘yoqlarda ishlashdan oldin rassom vazifa mohiyatiga qarab bu ranglavha uchun qanday rangli bo‘yoqlarni tanlash, ranglar uyg‘unligi, naturadagi iliq va sovuq tuslarni aniqlab olish maqsadida modelni xayolan tahlil qilib chiqish zarur.

Portretni sinchiklab ishlashni esa muallifga aniq ko‘rinib turgan bo‘laklardan boshlagan yaxshi. Rassom sochlar bilan umumiylidapeshanadagi tus va rang kuchini aniqlab olganidan keyin aniq ranglarni qo‘yib boshlaydi. Peshonani ranglarning bor kuchidan foydalanib ishlashni boshlaganda umumiy kompozisiyaning uyg‘unligini saqlagan holda sochning nisbatlarini ham olib ketadi. Undan keyin bir-biriga solishtirib portretning boshqa qismlarini ham shunday rang-tus nisbatlarida ishlashga o‘tadi. Shunday qilib muallif bosh va uning alohida bo‘laklarini solishtirib, ranglarda qurib boradi.

Mayda bo‘laklarda ishlab butun qo‘yilmani yaxlit idrok eta olish har doim ham rassomga muvvaffaqiyat olib kelavermaydi, uning ko‘zi tasvirlanayotgan joyga qarab boshqa qismlarni idrok qila olmaydi. Bu – naturani yaxlit idrok etish uchun kurashning azaliy muammosi. Boshlovchi rassom bunday prinsipda ishlash uchun sinchkovlik, diqqat-e’tiborini bir joyga jamlashda o‘zida kuch topa olishi darkor, bu esa portretda yonoqni ishlayotganda nafaqat yorug‘ tushib turgan yonoq qismini soyadagi joylar bilan, balki, yonoqni peshana, bo‘yin qismi, soch va orqadagi fon bilan doimiy solishtirish imkonini beradi. Har qanday buyumni chizayotganingizda doimo boshqalari bilan tinmay solishtirib turing, holbuki butun rangtasvir ishlash jarayoni nisbatlarga tayanadi.

Nafaqat shakl, nisbatlar va xarakterli qismlarni, balki rang nisbatlari ham solishtirilib boriladi.

Bosh shakli ranglar nisbatlarida qurilishini his qilish uchun rassomga etarli



52-rasm. J.Hunsung - Akvarelda portret ishlash bosqichlari (III-bosqich)

tajriba va sezgirlik zarur. Shuning uchun mayda bo‘laklar shaklini qurish uchun, har bir rang surtmasi orqali shaklning ma’lum qismi shaklini aniqlashtiring va albatta bunda rang-tus bo‘yicha har bir rang surtmasi bir-biridan farq qilishi kerak.

Bir necha seanslarda shakl ustida ishlar ekansiz, natura ko‘rinishiga yaqin

kelib qolganligingizni o‘zingiz ham sezasiz. Portretning bosh qismi modelga ancha o‘xshab qolganini ko‘rasiz. Portretni kuzatar ekanmiz ko‘z qiyofachining xarakterli ko‘z qarashlari kabi tikilib turganligi, burun xarakteri topilib, bosh hajmi to‘g‘ri qurila boshlanganligi hatto soch bo‘laklari ko‘rinishlari ham sezilib turganligi, ya’ni



53-rasm. J.Hunsung - Akvarelda portret ishslash bosqichlari (IV-bosqich)

barcha qismlar diqqat bilan mehr berib ishlanganligini ko‘rib turibmiz. Lekin 5-6 metr uzoqlikdan qaraganda esa portretning rang jihatdan sayyoz va jozibadorlikning yo‘qligini sezish mumkin. Bo‘yoqlar u darajada jarangdor emas, ranglar uyg‘unligi ko‘ngildagidek emas. Barcha mayda bo‘laklarga e’tibor bilan ishlov berilganligiga qaramay portretda hajm va uch o‘lchamlilik ko‘ngildagidek emasligi ko‘zga tashlanmoqda, buning ustiga yuz qismi qirqib ishlangan, ko‘z soqqasi aniq joylashtirilmagan, bir tomondagi jag‘ ikkinchi tomonga nisbatan pastga osilib tushib qolgan, labham bir tomonga tortib ketganligini ko‘ramiz. Hafsalangiz pir bo‘lib kichik mo‘yqalamni olb xatoliklarni to‘g‘irlashga kirishib, mayda bo‘laklarni ishlashga o‘tasiz, ammo bu bilan portretni ko‘ngildagidek to‘g‘irlab bo‘lmaydi.

Bu holatda ishslash kayfiyatizingizni buzadi. Sizda tushkunlik holati bor.

Buning barchasi etarli darajada olib borilgan rangtasvir mashg‘uloti jarayonida mayda bo‘laklarga ishlashga berilib, yaxlit ko‘rishga e’tibor bermagansiz. Mayda bo‘laklar sizni yaxlit idrok etishdan chalg‘itdi.

Rangtasvir mashg‘ulotining oxirgi bosqichi. Bu bosqichning maqsadi maydalani ketgan bo‘laklarni umumlashtirib, portretning konstruktiv qurilishini yangitdan qarab, umumiyo ko‘rinishni tahlil qilib chiqishdan iborat.umumlashtirib, yaxlit rangtasvir echimini topishda rassom o‘zida katta ichki zo‘riqishni his qiladi.


Bunday paytlarda barcha diqqatni yaxlitlik va badiiy echimni topish maqsadida maydalab ishlangan bo‘laklarni qaytadan ko‘rib chiqiladi. Bunday yoqimsiz mashg‘ulotni o‘tmishdagি barcha mashhur portretchi rassomlar ham bir necha marotabalab boshidan kechirgan.

V.A. Serovning xotira daftaridan bizga ma’lumki, modelni sinchiklab o‘rganish va katta yutuqlarga erishgan buyuk rassom, oltmish va undan ortiq seanslarda ishlab tayyor bo‘lgan portretlaridan hafsalasi pir bo‘lib, yoqmagan ishini achinmay mastixinda qirib tashlagan, o‘zida yana iroda va kuch topib 2-3 seansda qaytadan ishlab tugatganligining guvohi bo‘lamiz. Mana shu oxirgi seanslarda kompozisiyani yaxlitlashtirib, umumlashtirib, yuqori darajadagi san’at asari holiga keltirgan.

Rangtasvir mashg‘ulotlarida boshlovchi rassomlar diqqatini naturaning o‘ziga xos xususiyatlari va holatiga e’tibor qaratishini ta’kidlaymiz.


Agar inson portretini qo‘li bilan ishlaganda, albatta qo‘l ko‘rinishiga ham katta e’tibor qaratib sinchiklab ishlanishi zarur. Chunki inson qo‘li uning yuziga nisbatan ko‘proq ma’lumotlarni berishi mumkin. Qo‘lning aynan ushbu insonga xos bo‘lgan harakatlari va holati hayotiy va ishonarli, muhitga mos bo‘lishi zarur.

Portret chizish jarayonida qiyofachining ko‘zlariga asosiy diqqatingizni qarating, ko‘z qarashi orqali inson ichki dunyosiga kirib borishga harakat qiling. Chunki, ko‘z – bu qalb ko‘zi deb bekorga aytilmagan. Shuning uchun insonning ichki dunyosini ifodalash uchun ko‘z xususiyati, qarashiga diqqat qiling, uni sinchiklab qarab ishlashdan uyalmang. Bu uni butun kipriklarini, ko‘z qorachig‘idagi har bir chiziqni, shu’lani sanab chizish degani emas. Lekin ko‘z qarashlari jonli bo‘lib, uning ichki hissiyotini ko‘rsatib beradigan darajada e’tibor bilan aniq ifodalang.




54-rasm. Galina Ershova - Akvarelda portret ishslash

ILOVALAR



Misulbu Atelier - Akvarel portreti

Misulbu Atelier - Akvarel portretti





Misulbu Atelier - Akvarel portreti



Misulbu Atelier - portret



Mozaika san'ati



Фотомозаика Н. Святинского "Снежана Даниловна"


Foto mozaika san'ati



Oksana Smotrova

Oksana Smotrova






O'quv natyurmorti (Akvarel)


O'quv natyurmorti (Akwarel)







Karpan Aleksandr akvarel natyurmorti








Julia - natyurmort



O'quv natyurmorti



Sudakov Pavel Fedorovich



Anastasiya Lobanova (Rossiya Federatsiyasi, Sankt-Peterburg). Derazadan tashqarida qish. 2012. m.m. 90 × 85 sm.



ART-SPB.RU

Igor Grabar - deraza oldidagi gullar



O'quv natyurmorti



Aleksandr Zimin - Derazadagi yorug'likka qarshi natyurmorti



Korolkova Mariya - Yozgi natyurmort



Korolkova Mariya - Kungaboqarlar



Korolkova Mariya - Adan bog'i



Korolkova Mariya - Kresloda



Anastasiya Matveyeva - rassomlar ustaxonasi

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. X.E. Sultanov. RANGTASVIR (Akvarelda natyurmort ishlash). O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2019.
2. X.X. Muratov., Qalamtasvir, O‘quv qo‘llanma, TOSHKENT IJOD-PRINT 2020.
3. R.Xalilov Akvarel Izdatelstvo “Navruz”. T– 2013
4. Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson–Guptill Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015. s 664
5. B.Boymetov, Qalamtasvir. Darslik “Musiqa nashriyoti-2006.
6. B.Boymetov “Qalamtasvir” pedagogika institatlari va universitetlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent, Iqtisod-Moliya”-2010
7. S.Abdirasilov, N.Tolipov, N. Oripova. Rangtasvir: Toshkent–“O‘zbekiston” –2006/ 136 bet.
8. Ankabaev R.T. “Rangtasvir” (1-qism). o‘quv qo‘llanma.“Ishonchli hamkor”, 2021
9. Aggy Boshoff. Oil-painting Workshop. First American Edition, 2006 Published in the United States by DK Publishing, 375 Hudson Street, New York, New York.
10. Barrington Barber. Advanced DRAWING SKILLS a course in artistic excellence. The Publishing House, Bennetts Close, Cippenham, Slough, Berkshire SL1 5AP, England.2003/s-136
11. Orif Muinov, Rangtasvir., Toshkent-2007.
12. Paramon Edisionis, «Curso Completo de Dibujo y Pintura Artistica». SA, Barselona, Ispaniya 1992: s-127
13. Tolipov N., Abdirasilov S. , Oripova N. Rangtasvir (1–qism). Toshkent., 2002. TDPU
14. Sultanov X. “Rangtasvir” (grizaylda ishlash). Metodik qo‘llanma. T.– 2014.

15. Isaxojayeva Nasiba, “Rangtasvir. Kompozitsiya (natyurmort)., Toshkent-2014.
16. Shuhratovich, I. U. (2020). Technologies of working on graphic materials in fine arts classes (on the example of working still life in the pen. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (4), Part II, 41-45
17. Ismatov U.Sh. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini turli grafik materiallarda ishlashga o‘rgatish (tempera bo‘yog‘i misolida). МУГАЛЛИМ ҲЭМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ Илимий-методикалық журнал ISSN 2181-7138, № 3/2 2021 жыл.
18. Ismatov Ulfat Shuhratovich and Sobirov Sarvar Tursunmurotovich. Development of Creative Competence in Teaching Future Teachers of Fine Arts to Work in Graphic Materials. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 05, 2020 ISSN: 1475-7192

Elektron ta’lim resurslari

1. <http://cspi.uz/uz>
2. <http://lib.cspi.uz/>
3. <http://widget.ziyonet.uz>
4. <http://natlib.uz/>

MUNDARIJA

KIRISH.....	5
Tasviriy san'atning rivojlanish tarixi.....	7
Rangtasvir-rang san'ati.....	10
GRAFIK MATERIALLAR HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT	
Akvarel.....	12
Guash.....	18
Ko'mir.....	19
Sangina.....	22
Tempera.....	24
Sous.....	26
Tush.....	27
Ballpoint qalam (Sharkli ruchka).....	28
Markerlar.....	29
Yorug'likka qarshi qo'yilgan mavzuli murakkab natyurmort kompozitsiyasini ishlash.....	30
Rangi bir xil, turli tusdagi buyumlardan tuzilgan natyurmort kompozitsiyasini kontrast fonda ishlash.....	31
Rassom ustaxonasi interyerini tasvirlash.....	34
Dekorativ usulda har xil buyumlardan tuzilgan natyurmort rangtasvirini ishlash.....	36
Sodda buyumlardan tuzilgan natyurmortni turli grafik materiallardan foydalananib ishlash (applikatsiya, mozaika v.k.).....	46
Aniq xarakterga ega bo'lgan bosh namunasi (Appolon, Venera, Gatamelatta). ishtirokida tuzilgan natyurmort rangtasviri.....	54
Murakkab bo'lmanan natyurmort kompazitsiyasini moybo'yoqda ishlash ishlash. (Grizayl).....	58
Iliq tuslanishga ega bo'lgan kontrast rangli buyumlardan tuzilgan natyurmortni cheklangan ranglarda ishlash. (moybo'yoq).....	64
Sovuq tuslanishga ega bo'lgan murakkab natyurmort kompozitsiyasi	

ishlash.....	70
O‘ziga xos xarakterli xususiyatlarga ega bo‘lgan inson portreti rangtasviri. (Akvarel).....	74
Ilovalar.....	87
Adabiyotlar ro‘yxati.....	108

Ismatov Ulfat Shuhratovich

RANGTASVIR

O‘quv qo‘llanma

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: S. Meliquziyeva

Musahhih: M. Yunusova

Sahifalovchi: A. Muhammad

Nashr. list 2244. 25.08.2020.

Bosishga ruxsat etildi 12.05.2023.

Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'ozি. "Times New Roman"

garniturasи. Hisob-nashr tabog'i. 6,0


Adadi 100 dona. Buyurtma 1303458

«Nazokathon ziyo print» MCHJ bosmaxonasida chop etilgan.



The background image shows an aerial view of a coastal town. In the foreground, there's a large body of water with some white foam. To the right, a peninsula or island is visible, featuring several buildings with prominent red roofs. A tall, thin structure, possibly a lighthouse, stands on the far right edge of the land. The sky above is clear and blue.

ISBN 978-9943-8977-6-2



A standard linear barcode is positioned in the center of the white rectangular area. It represents the ISBN number 978-9943-8977-6-2.

9 789943 897762